




S.U. PO'LATOVA

# Kiyimni konstruksiyalash





687


P-99

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

S. U. PO'LATOVA

# KIYIMNI KONSTRUKSIYALASH

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*



**Taqrizchilar:** N. Hasanova — Buxoro Yengil sanoat kasb-hunar kolleji o'qituvchisi.

S. A. Hamroyeva — Buxoro Oziqovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutining «TSMT» kafedrasi muddiri, dotsent.

### **S. U. Po'latova.**

**Kiyimni konstruksiyalash.** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol», 2006-y, 120 bet.

O'quv qo'llanmada kiyim to'g'risida umumiy ma'lumotlar, kiyimning kelib chiqishi tarixi, uning vazifalari, mo'ljallanishi bo'yicha tasnifi, kiyimning sifat ko'rsatkichlari va uni baholash omillari keltirilgan. Kiyimni yaratishda odam tanasining tuzilishi haqida ma'lumotlar, tanani o'lchash usullari va qo'llanadigan asboblar, kiyimning tashqi va ichki tuzilishi, shakli, konstruksiysi haqida ma'lumotlar berilgan. Kiyimning konstruksiya chizmasini hisoblash va yaratish, andazalar tayyorlash va ularni texnik ko'paytirish usullari yoritilgan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsija etilgan.

## KIRISH

Bugungi kunda jahon bozorida tabiiy mahsulotlarga talab juda katta. Shu bois Respublikamizda mahalliy tabiiy xomashyodan ishlab chiqariladigan tikuvchilik mahsulotlari hajmini ko'paytirish, kiyim strukturasini yanada takomillashtirish, sifatini yaxshilash, raqobat-bardosh va xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bu vazifani amalga oshirish uchun Respublikamizning tikuvchilik korxonalarida yangi texnika va ilg'or texnologiyani joriy etish, yangi majmua mexanizatsiya-lashtirilgan jarayonlarni qo'llash, yangi materiallardan foydalanish, shu bilan birga texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish hamda yangi kichik korxonalar barpo etish ishlarini yo'lga qo'yish talab qilinadi. Tayyor kiyim yuqori sifatli va ishlab chiqarish jihatidan samarali bo'lishi uchun unga loyihalash bosqichidayoq zamin yaratish lozim.

Kiyimni konstruksiyalash loyihalashning eng muhim qismi bo'lib, u badiiy konstruktorlik va texnik vazifalarining yechimini o'z ichiga qamrab oladi. Yetakchi tarmqolar tajribasidan ma'lum avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarini yaratish va amaliyotda qo'llash loyihalash jarayonini takomillashtirishning taraqqiyoti va perspektiv asosi hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarining asosiy maqsadi — sifatni yaxshilash, moddiy harajatlarni kamaytirish va loyihalash muddatlarini qisqartirishdir.

Modaning almashib turishi, kiyimning eng muhim fazilatlaridan biridir. Har bir yangi tavsiya etilgan kiyim modeli uchun baza asosi konstruksiyasini yaratish birmuncha murakkab vazifa hisoblanadi. Ishni yengil-lashtirishda har xil va baza konstruksiyalardan foydalanildi.

Mazkur o'quv qo'llanma, kiyim haqida umumiylar, ma'lumot, uning tasnifi, kiyimga qo'yiladigan talablar, kiyimni konstruksiyalash, kiyimning tashqi ko'rinishi, tuzilishiga doir badiiy va texnik masalalar yechimini o'z ichiga olgan.

# I. KIYIMNI LOYIHALASH UCHUN DASTLABKI MA'LUMOTLAR

---

## 1.1. USLUB VA MODA. KIYIM KOMPOZITSIYASINING ASOSIY TAMOYILLARI

✓ **Kiyimning shakli.** Shakl buyumning tashqi ko'rnishini ifodalaydi. Zamona viy kiyim yumshoq va egi-luvchan bo'lgani sababli o'z shakliga ega emas. Shu bois kiyimning shakli deganda, uning odam tanasida hosil qilgan konfiguratsiya tushuniladi. Shaklni, asosan, uning tuzilishi konfiguratsiya yuzasining ko'rinishi tavsiflaydi. Bu xususiyatlarning parametrlari o'zgarib turadi. Ular modaga, yil fasli, yoshga, tana o'lchamlari, shaklga, kiyim turi va materialiga hamda estetik talablarga bog'liqdir. Shakllar tuzilish bo'yicha *oddiy* va *murakkab* bo'ladi. Oddiy shakl bir bo'lakdan iborat. Masalan: yubka yoki ko'ylak. Murakkab shakl yagona yaxlitlikni tashkil etgan bir necha bo'laklar tizimididan iboratdir.

Vazifasiga ko'ra, shakl, asosiy qo'shimcha va dekorativ qismlarga bo'linadi. Shaklning asosiy qismi kiyimning xilini aniqlaydigan bo'laklardir. Masalan: yengil kiyimda asosiy qismlar lif va yubka hisoblanadi. Ust kiyimlarda esa, ularga yeng va yoqa qo'shiladi.

Shaklning qo'shimcha bo'laklari muayyan kiyim xilining tarkibiga kirishi shart bo'limgan qismlar (ko'ylakning yengi va yoqasi) dir.

Dekorativ qismlar shaklning asosiy va qo'shimcha qismlarini o'zgartirib xillarini ko'paytiradi.

Shaklning konfiguratsiyasi bu uning geometrik ko'rinishi va tashqi konturlarining chizig'idir.

Shaklning konfiguratsiyasini ifodalaganda geometrik shakllar (to'g'ri to'rtburchak, trapetsiya, oval va h. k.) harflar va raqamlar (II, 8, X shakllar va h.k.) bilan

obrazli solishtiriladi. Shabl konfiguratsiya, rasm, surat, skulptura shaklidagi tasvirlar orqali grafik tarzda ifodalanadi.

Siluet hajmiy shaklning soddalashtirilgan ramziy ifodasi. Kiyimning asosiy siluetlari g'vdaga nisbatan (tanaga yaqinlik darajasi) va geometrik shakliga ko'ra tasniflanadi. Tanaga yaqinlik darajasi bo'yicha siluetlar quyidagicha farqlanadi:

- yopishgan;
- belga yopishgan (lif va yubka turli hajmiylikka ega);
- sal yopishgan;
- to'g'ri;
- kengaygan;
- toraygan.

Geometrik shabl ko'rinishi bo'icha:

- to'g'ri to'rtburchakli;
- trapetsiyasimon;
- sal yopishgan;
- iks shaklida;
- ovalsimon.

Yopishgan siluet tana shaklini yaqqol ko'rsatish bilan tavsiflanadi.

Belga yopishgan siluetli kiyimning belga zinch yopishganligi bilan tavsiflanadi, shu bilan bir paytda, lifning shakli, yopishgan holatdan juda kengaytirilgan holatgacha o'zgarishi mumkin. Yubkada ham katta o'zgarishlar kuzatilishi mumkin: etak tomoni toraytirilgan yoki belga burma berib juda kengaytirilgan. Ushbu siluetga bel chizig'inining holati aniq belgilanishi lozim.

Sal yopishgan siluet ko'krakka ravonlik, belga bo'shroq o'tirishi va etakning me'yor bilan kengayganligi orqali tavsiflanadi.

Belga yopishganlik darajasi gavdaning xususiyatiga ham bog'liq. Maslan, beli bilinmaydigan gavdalar uchun konstruksiyada bel chizig'iga beriladigan to'kislik qo'shimchasi, yopishgan siluet qo'shimchasiga teng bo'lishi

mumkin. Bu holda kiyim shakli sal yopishgan siluetday ko'rinadi. Chunki, bel chizig'iga eng ko'p yopishgan muayyan nuqta sezilmaydi. Yon chiziqlar va bo'rtma choklar chiziqlarining konfiguratsiyasi moda yo'naliishiga bog'liq holda farqlansa ham bel qismida doim ravon shaklga ega bo'ladi.

Sal yopishgan siluet gavdaning konturini takrorlasa ham uni bo'rttirib ko'rsatmaydi.

To'g'ri siluet shaklan to'g'ri to'rtburchakka juda yaqin. Bu guruhga hajmi katta kiyimlar ham kirishi mumkin.

Kengaygan siluetga doir kiyimlarning tepe qismi hajman katta bo'lmaydi, lekin etakning pastki qismi kengaytiriladi. Ba'zan ushbu siluet trapetsiyasimon deyiladi. Siluetning barcha turlarida ko'krak chizig'idan pastroqda ma'lum darajada to'kislik nazarda tutiladi.

Moda yo'naliishiga bog'liq holda siluetning kengayish darjasи hamda kengayishning boshlanish nuqtasi yelkadan, o'mizning o'rtasidan, ko'krak chizig'idan va undan pastroqda bo'lishi mumkin.

**Konstruksiya** — biror narsaning qurilishi yoki tuzilishini anglatadi. Kiyimning tuzilishiga bog'liq holda bichilgan va bichilmagan kiyim konstruksiyalari mavjud.

Bichilgan kiyim konstruksiyalari bir-biri bilan berilgan tartibda ulanib, kerakli shakl hosil qiluvchi muayyan konfiguratsiya va o'lchamga ega bo'lgan detallardan tuziladi.

Tekis material konstruktiv chiziqlar yordamida asosiy detallarga bo'lib olinadi. Konstruktiv chiziqlar kiyimning shaklini hosil qiluvchi va ko'pincha dekorativ ko'rinish bermaydigan kiyim detallarining kontur chiziqlaridir.

Odamning anatomik tuzilishi va tanasining hajmi kiyimni konstruktiv chiziqlar yordamida asosiy detallarga bo'lishni taqozo etadi. Shu bois konstruktiv chiziqlar, ko'pincha tananing chiqqan yoki botiq joylariga yaqin yon satxi bo'ylab yoki unga ko'ndalang holda o'tadi.

Yelkali kiyimlarning asosiy detallariga orqa, old bo'lak, yeng va yoqa kiradi.


## 1.2. KIYIM VA UNING VAZIFALARI HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR. ZAMONAVIY KIYIM TASNIFI

**Kiyim** — odam tanasiga kiyiladigan buyumlar majmuasi (ichki kiyim, ustki kiyim, bosh kiyim va hokazo).

Odamning zamonaviy kiyimi ko'p vazifali bo'lib, ular quyidagi struktura bilan ifodalanadi (1-rasm).

Rasmdan ko'rinish turibdiki, birinchi pog'onada kiyim vazifalari ikkiga bo'linadi: utilitar va axborot — estetik. Utilitar vazifalar muhofaza va fiziologik-gigiyenik vazifalarga, axborot-estetik vazifalar esa alohida-alohida axborot va estetik vazifalarga bo'linadi.

Muhofaza vazifalariga noqulay iqlimi shart-sharoitlardan muhofaza, mexanik ta'sirlardan muhofaza, ishlab-chiqarishning zararli ta'sirilaridan muhofazalar kiradi. ✓




1-rasm. Kiyim vazifalari.

Fiziologik-gigiyenik vazifalarga kiyimning statika ham dinamikada qulayligi va kiyim ostidagi mikroiqlimning mukammalligi kiradi.

Axborot vazifalari odam haqida axborot va kiyim haqida axborotni o'z ichiga oladi. Kiyimning odam tashqi ko'rinishiga mosligi, kiyim kompozitsiyasining ko'rakmaliyi va kiyimning tovar ko'rinishi estetik vazifalarni tashkil etadi.

Zamonaviy kiyimning tasnifi asosiga, uning eng zarur bo'l mish, muhofaza funksiyasi olingan. Shunga asoslanib kiyimni uch sinfga bo'lish mumkin (2-rasm):

I — maishiy kiyimlar, II — sport uchun mo'ljalangan kiyimlar, III — ishlab chiqarish kiyimlari.



2-rasm. Zamonaviy kiyim tasnifi.

**Maishiy kiyim — odam organizmini iqlimiylar shartlarda muhofaza etadigan kiyim.**

**Sport kiyimi — sportchilar tanasini shikastlanishdan qlashi va yuksak natijalarga erishishga imkon berishi uchun.**

**Ishlab chiqarishda kiyiladigan kiyim odam tanasini lab chiqarishning zararli ta'sirlardan muhofaza qiladi.**  
**Maishiy kiyim — eng ko'p sonli bo'lib quyidagi flarga bo'linadi:**

- 1.1 — ichki kiyim;
- 1.2 — kastum-ko'ylak;
- 1.3 — ustki kiyim;
- 1.4 — korset buyumlari.

**Maishiy kiyimlarning har biri sifchalarga va ular o'z ybatida kiyim turlariga bo'linadi.** Masalan: kastum-ko'ylak sifchasi (1.2) — 1.2.1-pidjak, 1.2.2 — jaket, 1.2.3 — kurtka, 1.2.4 — ko'ylak va hokazo (1.2n) larga bo'linadi.

**Ma'muriy kiyim** dengiz floti xizmatchilari, aviatsiya dimlari va hokazolar kiyimini o'z ichiga olib, shinel, tel, plash kabi turlardan iboratdir.

**Texnologik kiyimlar** sifchasi odam tanasiga ishlari davomida ta'sir etuvchi ifloslar va mexanik sirlardan himoya qiluvchi kiyimlardan iborat. Ular tibbiyatlar, tikkuvchilar, farroshlar ish kiyimlari va hokazodir. Yosh va jinsga qarab, texnologik kiyimlar ayollar erkaklar kiyimiga, mavsumga qarab esa yozgi, qishki barcha mavsumlarda kiyiladigan kiyimlarga bo'linadi.

### **1.3. GAVDA TUZILISHI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOTLAR**


#### **1.3.1. Gavda o'lchamlari. O'lchash asboblari turlari va mo'ljallanishi**

**Anatomiya — kishi organizmi; ayrim organlar va imlarning tuzilishi hamda shakllari haqidagi fan.** Anatomiya morfologiyaning bir qismi hisoblanadi.

**Morfologiya** — kishi organizmining shaxsiy o'zgaruvchanligi, gavda o'chamlari va proporsiyalarining yoshga qarab o'zgarishi hamda organizmning ayrim qismlari o'zgaruvchanligi, qonuniyatlar haqidagi fan bo'lib, inson tanasining tuzilishi haqidagi ta'limot, ya'ni antropologiya fanining bir qismi hisoblanadi.

**Plastik anatomiya** — kishi gavdasining tashqi shakli, ya'ni qaddi-qomatini o'rGANADI. Gavda odatda tana, bo'yin, bosh qo'llar va oyoqlar degan bo'limlarga bo'lib o'rGANILADI.

Odam skeleti kalla suyagi (I) (3-rasm, a, b), tana suyaklari (2), qo'l va oyoq (4) suyaklaridan tashkil topgan. Odamning umurtqa pog'onasi (3-rasm, d) S-simon (egri) bo'ladi: umurtqa pog'onasi bo'yin (I) va bel (III) qismlarida egrilik chizig'i — oldinga, ko'krak



3-rasm. Odam tanasining skeleti.


(II) va bel (IV) qismlarida esa orqaga yo'nalgan. Umurtqa pog'onasining egrilik darajasi odamning qaddiqomatini belgilaydi.

Qo'l skeletiga — yelka kamari (o'mrov va kuraklar) hamda qo'llarning erkin (yelka, tirsak va bilak hamda kaft) suyaklari kiradi. Yelka suyagi tik vaziyatda joylashgan yoki biroz orqaga yoki oldinga og'gan bo'lishi mumkin. Yelka suyagi bilan tirsak hamda bilak suyaklari birlashgan joyda burchak hosil bo'ladi, U yengning shakliga ta'sir etadi.


Oyoqlar skeleti tos kamari va oyoqlarning erkin suyalakri jumlasiga yonbosh (son) suyagi, katta va kichik boldir suyaklari hamda tovon suyaklari kiradi.

Oyoqlarning shakli — yonbosh yoki bilak, boldir oyoqning bir-biriga nisbatan qanday joylashganligiga qarab, normal (4-rasm, a), X-simon (4-rasm, b), O — simon, ya'ni xomutsimon (4-rasm, d) va sirkulsimon (4-rasm, e) bo'lishi mumkin.

Tananing bo'yin asosidan to yelka bo'g'imlarigacha bo'lgan qismi yelka deb ataladi. Yelka normal (5-rasm, a), keng (5-rasm, b) va tor (5-rasm, d) shuningdek,



4-rasm. Oyoqlar tuzilishi.



*5-rasm. Tananing bo'yin qismi balandligi.*

*6-rasm. Tananing yelka balandligi turlari.*

qiyalik darajasiga (6-rasm) qarab, normal (6-rasm, *a*) baland (6-rasm, *b*) hamda past (6-rasm, *d*) bo'lishi mumkin.

Qorinning ham asosiy uchta shakli mavjud: tekis, ichga tortilgan va dumaloq, do'ppayib chiqib turgan qorin. Qorinning shakli jinsga, yoshga va oriq-semizlikka bog'liq bo'ladi.

Orqa yoki umurtqa bo'limlari salgina bo'rtib chiqqan (to'lqinsimon), bukchaygan va to'g'ri bo'lishi mumkin. Bo'yining shakli xilma-xil: erkaklarda muskullar juda rivojlanganligi sababli bo'yining kesimi murakkab, bolalarda esa birmuncha dumaloq bo'ladi. Bo'yining uzun-qisqaligi yoshga hamda yelka qiyaligiga bog'liq.

Gavdani belgilab beruvchi asosiy morfologik belgilari umumiylarini, mutanosiblikni, gavda tuzilishi va qad-qomatni o'z ichiga oladi.

Umumiylar deganda, tananing uzunligi (odamning bo'yin, ya'ni bo'y), ko'krak aylanasi (parametri) hamda vazn (massa) kabi eng yirik belgilari tushuniladi. Gavdaning o'rtacha uzunligi (o'rtacha bo'y) o'g'il chaqaloqlarda 51,5 sm bo'ladi. Erkaklarning bo'yi 18—20 yoshda «marraga» yetadi; mamlakatimizda erkaklarning o'rtacha bo'yi 35—50 yoshgacha o'zgarmaydi, shu yoshdan o'tgach, har besh yilda 0,5 sm qisqara boradi, 55 yoshgacha shu tarzda davom etadi, keyinchalik har besh yilda 0,7 sm dan qisqara boshlaydi.

Ko'krakning antropometrik aylanasi antropologiyada juda yaxshi o'r ganilgan, erkaklarda bu o'lcham orqada —


kurak suyaklari ostida, oldinda esa ko'krak bezlari uchi atrofidagi pastki segment bo'yicha o'lchab aniqlanadi. Yosh ulg'aygan sari ko'krak aylanasining o'lchami orta boradi, qarigandan keyingina biroz kamayadi.

Bir yashar go'dakning ko'krak aylanasasi 49 sm ga teng. 25—26 yoshdagi yigitlarda ko'krak aylanasasi o'lchami «marra»siga yetadi va o'zgarmaydi. Erkaklar 40 yoshlarda jadal semira boshlaydi, shu sababdan ko'krak aylana o'lchami ortadi. 60 yoshlardagina ko'krak aylana o'lchami kamayadi, bunga organizmning qarishi bilan bog'liq fiziologik o'zgarishlar sabab bo'ladi.

Erkaklar gavdasining o'rtacha vazni 64 kg. Katta yoshdagi kishilar vaznining 40 kg dan kam yoki 99 kg dan ziyod bo'lishi patologik kasallik hisoblanadi. O'sish davrida tananing vazni ortaveradi, 25—40 yoshlarda vazn barqarorlashadi. 40 dan 55 yoshgacha tana vazni har besh yilda o'rta hisobda 1,0—1,5 kg ortadi, 60 yoshdan o'tgach, birmuncha kamayadi.

Kiyimni konstruksiyalash uchun proporsiya (mutanosiblik)ning katta ahamiyati bor. Proporsiya deganda, tananing turli qismlari o'lchamining bo'yiga nisbati tushuniladi. Bu nisbat foizlar bilan ifodalanadi. V. V. Bunnak katta yoshdagi erkaklar va ayollar o'rtasida ko'p uchraydigan tana proporsiyalarini uchta asosiy turga bo'ladi: dolixomorf tur (7-rasm, a) — bu turga mansub kishilarning oyoqlari uzun, tanasi qisqa va ixcham (kambar) bo'ladi; braximorf tur (7-rasm, d) — bu turga mansub kishilarning oyoqlari nisbatan qisqa, tanasi uzun va serbar bo'ladi; mezomorf tur (7-rasm, b) oraliq tur hisoblanadi.

Tana proporsiyalari yoshga va jinsga qarab o'zgaradi. Yoshga bog'liq o'zgarishlar, birinchidan, tana barcha qismlarining ortishidan, ikkinchidan, proporsiyalar o'zgarishidan iborat bo'ladi. Masalan, katta yoshdagi kishining kallasi chaqaloqning kallasidan ikki baravar



7-rasm. Tana proporsiyasi turlari.


katta, bo'yin — uch baravar, qo'llar — to'rt baravar, oyoqlar — besh baravar va *bo'yi yetti baravar* uzun bo'ladi. Bunda boshning aylana o'lchami atigi bir yarim baravar, ko'krak aylanasi o'lchami esa uch baravar ortiq bo'ladi.

Tana tuzilishi muayyan belgilar majmuyiga bog'liq bo'lib, kishining qad-qomatini ifodalaydi. V. V. Bunak erkaklarning gavda tuzilishini yetti turga bo'lgan. Shulardan uchtasi asosiy hisoblanadi: ko'krakdor (ko'ksi baland) tur; muskullari rivojlangan tur va qorindor tur.


**Ko'krakdor tur** (8-rasm, a) — unchalik semizmas, muskullari ozgina rivojlangan, ko'krak qafasi yassi, qorni tortilgan, bukchaygan.

**Muskullari rivojlangan tur** (8-rasm, b) — teridagi yog' qatlami o'rtacha, muskullari o'rtacha yoki juda rivojlangan, ko'krak qafasi silindrik shaklda, orqasi tekis.

**Qorindor tur** (8-rasm, d) — semiz, muskullari o'rtacha yoki rivojlangan, ko'krak qafasi konussimon, qorni dumaloq bo'lib chiqib turadi, bukchaygan yoki oddiygina.



*8-rasm. Tana tuzilishi turlari.*



*9-rasm. O'g'il bolalar tanasining asosiy proporsiya turlari.*


O'g'il bolalar jussasining V. G. Shtefko tuzgan rasm orqali kuzatish ma'qul hisoblanadi. Bu rasmda o'spirinlar jussasining uchta asosiy turi berilgan (9-rasm).

A stenoid tip — semizmas, muskullari kam rivojlangan, ko'krak qafasi yassiroq va tor, bukchay-ganroq oyoqlari nisbatan uzun (dolixomorf turning o'zginasi 9-rasm, a).

Torakal tip — muskullari ortacha rivojlangan, semizligi ham o'rtacha, ko'krak qafasi silindrik shaklda, qorni tekis, orqasi to'lqinsimon (9-rasm, b).

Digestiv tip — juda semiz, muskullari o'rtacha yoki juda kam rivojlangan, ko'krak qafasi konussimon, qorni dum-dumaloq bo'lib chiqib turadi, orqasi tekis bo'ladi (9-rasm, d).

Andom (gavdaning holati) deganda, gavdaning kishi tinch turgan paytdagi yoki to'g'ri yurib ketayotgan paytdagi turg'un tik holati tushuniladi. Andom turlarining har xil ta'rifi mavjud. Tikuvchilik sanoatida asosiy uch xil andom turi qabul qilingan (10-rasm) normal



(a), bukchaygan (b) va kekkaygan andom (d). Polyak tadqiqotchisi N. Volyanskiy bolalar va o'spirinlarning andomini bat afsil ta'riflab bergen. U umurtqa pog'onasining egriligini uch majmuaga ajratadi: har bir majmua uch variantdan iborat.

Kiftik kompleks. K — umurtqa pog'onasining ko'krak qismi bel qismiga nisbatan ko'proq egilgan. Ko'krak qismining egilganlik darajasiga qarab andomning uchta kifotik varianti farq qilinadi.

Muvozanatlari kompleks. R — umurtqa pog'onasining ko'krak va bel qismlari egrilik darajasi bir xil. Bu majmuaning ham uch varianti bor.


Lordotik kompleks. L — umurtqa pog'onasining bel qismi ko'krak qismiga nisbatan ko'proq egilgan.

### 1.3.2. Erkaklar va bolalarning o'lcham tipologiyasi.

#### Antropometriya

Ko'p miqdorda ishlab chiqariladigan kiyimlarni konstruksiyalash va asosiy bazalarini ishlab chiqarish uchun maishiy xizmat tizimidagi konstruktorga standart gavdalar, ya'ni mamlakatning jami aholisiga xos gavdalar o'lchamining mukammal tavsifi kerak bo'ladi. Bu ma'lumotlarni antropometrik tekshirish, ya'ni kishining gavdasini va uning qismlarini o'lhash yo'li bilan hosil qilish mumkin. Bu ish *antropometriya* deb ataladi. Antropometrik tekshirishlar vaqtida gavdaning muayyan nuqtalari — antropometrik nuqtalar oraliq'i yoki yumshoq gazlamada aniq bilinib-ko'rinish turadigan chegaralar, teridagi o'ziga xos nuqtalar bo'yicha o'lchanadi. O'lchov belgilarini hosil qilish uchun antropometrik nuqtalardan foydalilaniladi (11-rasm).

Antropologiya (yunoncha: *antropo* — odam, *logiya* — fan) — odamning kelib chiqishi va evolutsiyasi, odamzod irqlarining paydo bo'lishi, odamning tana



**11-rasm. Odam tanasida antropometrik nuqtalarning joylanishi:**  
**1 — kalla suyakdagi nuqta — tepa do'ngi; 2 — bo'yindagi nuqta — yettinchi bo'yin umurtqasining o'tkir o'simtasi uchi; 3 — bo'yin asosidagi nuqta — bo'yinning aylana chizig'i yelka qiyaligining qoq yarmida; 4 — o'mrov nuqtasi — o'mrov suyagining to'sh suyagiga birikkan baland joyi; 5 — to'sh suyagidagi nuqta — to'sh suyagining qovurg'alar uchi birikkan satxi joyalashgan chizig'ining qoq o'rtasi; 6 — yelka nuqtasi — kurak suyagi akromial o'simtasining yuqorigi cheti bilan yelka bo'g'imi sohasini ikkiga bo'lgan vertikal tekislik kesishgan joy; 7 — tirsak suyagidagi (tirsakdagisi) nuqta; 8 — ko'krakdagi nuqta — ko'krak bezining uchi; 9 — tizzadagi nuqta — tizza qopqog'ining markazi; 10 — qo'l itiqning old burchagidagi nuqta — qo'l pastga tushirilganda qo'litiq chuqurchasining oldingi cheti hosil qiladigan youning eng baland nuqtasi; 11 — qo'l itiqning orqa burchagidagi nuqta — qo'l pastga tushirilganda qo'litiq chuqurchasining orqa chetida hosil qiladigan youning eng baland nuqtasi; 12 — dumbadagi nuqta — dumbaning eng baland joyi; 13 — bel chizig'ining balandlik nuqtasi — biqinining ichga botib turgan joyi pastki qovurg'a bilan yonbosh suyakning qirra oralig'i; 14 — qirra nuqtasi — yonbosh suyagi qirrasining chetga eng ko'p chiqib turgan nuqtasi (bolalarni antropometrik tekshirish vaqtida bu nuqtaga murojaat qilinadi).**

tuzilishidagi normal farq tafovut, o'zgaruvchanlik haqidagi fandir.

**Antropometriya — antropo — odam, metro — o'lchayman degan ma'noni bildirib, antropologiyaning**

tekshirish usullaridan biri hisoblanadi va u odam organizmi a'zolarining barcha belgilari (uzunligi, kengligi, shakli, qalinligi va h. k.) o'zgarib turishini miqdoriy tomondan tavsiflab beradi.

Barcha o'Ichovlar vertikal va gorizontal tekisliklarda o'chanadi.

Umurtqa pog'onasi orqali o'tib tanani o'ng va chap qismlarga bo'ladigan vertikal tekislik, shunngdek, unga nisbatan parallel joylashgan hamma tekisliklar sagittal tekislik deb ataladi.

Sagittal tekisliklarga nisbatan tik perpendikular joylashgan va tanani oldingi va orqa qismlarga bo'ladigan vertikal tekisliklarga frontal tekisliklar deyiladi.

Sagittal va frontal tekisliklarga nisbatan tik joylashgan hamda tanani yuqori va pastki qismlarga bo'ladigan gorizontal tekisliklar transversal tekisliklar deb yuritiladi.

O'Ichov olish vaqtida gavda muayyan vaziyatni egallashi, ya'ni kishi zo'riqmasdan, to'g'ri turishi hamda qomatining odatdag'i holatini saqlashi, bosh, ko'z-quloq gorizontal chizig'idan chetga og'masligi, qo'llar pastga tushirilgan, barmoqlar yozilgan, tizza bukilmagan bo'lishi, tovonlar juftlashtirilishi va oyoqlar uchi ikki tomonga kerilishi lozim.

Antropometrik tekshirishlar vaqtida pastki ichki kiyimdan boshqa kiyimlar va poyabzal yechiladi.

Antropometrik tekshirishlar zamonaviy usulining o'ziga xosligi shundaki, dasturlar, o'Ichov turlari, o'Ichash asboblari, o'Ichash sharoitlari, tartib va usullari maksimal darajada unifikasiya qilinganlidigidir.

O'Ichov belgilari bosh harflar bilan ifodalanadi va harflar tagiga indekslar yoziladi. Harflar o'Ichov turiga qarab tanlanadi. Masalan, V — balandlik; D — uzunlik, masofa va ko'ndalang yoqlar; O — to'la aylana; S —

yarim aylana; R — bo'y (bo'y); Sh — kenglik (eni), ko'ndalang yoylar; U — markazlar o'tasidagi masofa; d — diametrlar; G — chuqurlik.

Indekslar o'lchanan joyni anglatadi. Masalan: V<sub>k</sub> — ko'krak balandligi; D<sub>or.uz</sub> — orqaning belgacha uzunligi; O<sub>k</sub> — ko'krak aylanasi; Sh<sub>k</sub> — ko'krak kengligi; S<sub>k</sub> — ko'krak bezlarining uchlari orasidagi masofa va hokazo.

Antropometrik tekshirishlar ommaviy ravishda o'tkaziladigan hollarda standartlashtirilgan kontakt o'lhash asboblari qo'llaniladi.

Martin tizimidagi ixcham, metall antropometr bilan balandlik o'lchanadi. Ko'ndalang va old-orqa proyeksiya dimetrlarini o'lhashda just mustali ustki shtangadan shtangensirkul sifatida foydalaniladi.

Katta sirkul to'g'ri diametrlarni o'lhashga mo'ljalangan.


Aylanalar va yoysimon ko'ndalang hamda bo'ylama o'lchovlar uchun santimetrali tasma qo'llaniladi.

Tananing massasi meditsina muassasalari uchun mo'ljallangan ixcham tarozida tortib aniqlanadi.

Chiziqli proyekcion o'lhashlar yerdan to antropometrik nuqtalargacha bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni bildiradi: V<sub>bel.chiz.</sub> (7) — bel chizig'inining balandligi; V<sub>k.uchi</sub> (6) — ko'krak bezlari uchinining balandligi; V<sub>qo'l.ori.burch.</sub> (11) — qo'litiq chuqurligi orqa burchagining balandligi; V<sub>dumb.bur.</sub> (12) — dumba osti burmasining balandligi.

Yoyli ko'ndalang perimetr (aylana)lar transversal tekisliklarda santimetrali tasma yordamida o'lchanadi; O<sub>bo'y.</sub> (13) — bo'yin aylanasi; O<sub>k.I</sub> — (14) — ko'krak aylanasi, birinchi; O<sub>k.II</sub> — (15) — ko'krak aylanasi, ikkinchi; O<sub>k.III</sub> — yoki O<sub>k</sub> (16) — ko'krak aylanasi, uchinchi; O<sub>bel</sub> (18) — bel aylanasi; O<sub>son</sub> (19) — son aylanasi qorinning balandligi ham shu hisobga kiradi; (12-rasm, d); O<sub>to.p</sub> (24) — to'piq aylanasi (12-rasm, e)

**O<sub>yel</sub>** (28) — yelka aylanasi (12-rasm, *h*). Yoqli bo'ylama o'lchashlar (balandlik, uzunlik, masofa) tana ayrim qismlarining kattaligini bildiradi, bunda santimetrlri tasmadan foydalaniladi: D<sub>yon bel</sub> (25) — bel chizig'idan polgacha (yon tomonidan) bo'lgan uzunlik (12-rasm, *f*). D<sub>old.bel</sub> (26) — bel chizig'idan polgacha (oldi tomon-



12-rasm. Odam gavdasidan o'lchamlar olish.

dan) bo'lgan uzunlik;  $D_{\text{bel tiz}}$  (71) — bel chizig'idan tizzagacha bo'lgan masofa;  $D_{\text{or uz}}$  (40) — orqaning bel chizig'igacha uzunligi (kuraklar balandligi ham shu hisobga kirgan); (12-rasm, d);  $V_{\text{yel.qiya}}$  (41) — yelka qiyaligi balandligi;  $D_{\text{or uz}}$  (43) — orqa tomon bel chizig'idan bo'yin asosigacha bo'lgan masofa;  $D_{\text{qo'l tur}}$  (62) — qo'lning tirsakkacha uzunligi (12-rasm, h);  $V_k$  (35) — ko'krak balandligi (12-rasm, j);  $D_{\text{old.bel}}$  (36) — oldning bel chizig'igacha uzunligi;  $V_{\text{old.yel.k.}}$  (60) — yelka qiyaligining old tomondan balandligi (12-rasm, k);  $D_{\text{bo'y.old.bel.t}}$  (61) — bo'yin asosidan bel chizig'igacha old tomondan o'lchangan masofa.

Yoyli ko'ndalang o'lchashlar (kenglik, yoy) gavdanning ayrim qismlari kengligini bildiradi (bu o'lchashlarni olishda santimetrla tasmadan foydalaniadi);  $Sh_{\text{yel.qiya}}$  (31) — yelka qiyaligining kengligi (12-rasm, h);  $Sh_{\text{or}}$  (47) — orqaning kengligi (12-rasm, j);  $Sh_k$  (45) — ko'krakning kengligi (12-rasm, l);  $S_k$  (46) — ko'krak bezlari uchlari oralig'i.

Chiziqli proyekcion o'lchashlar (chuqurlik) gavdaning holati  $P_{\text{yu}}$  (74) ni (12-rasm, b), belning chuqurligi, birinchi  $G_{\text{bel.1}}$  va belning chuqurligi, ikkinchi  $G_{\text{bel.2}}$  ni (12-rasm, b) bildiradi.

Diametrler antropometrning yuqori shtangasi, katta sirkul bilan o'lchanadi yoki bir belgining o'lchovini boshqa belgi o'lchovidan chegirib tashlash yo'li bilan hosil qilinadi:  $d_{\text{qo'l.v}}$  (69) — qo'lning vertikal diametri (12-rasm, a) o'lchov belgisi 11 ning qiymatidan o'lchov belgisi 5 ning qiymati chegirib tashlanib hosil qilinadi;  $d_{\text{old.or.k}}$  (58) — ko'krak aylanasi, ikkinchisining old orqa diametri antropometr yuqori shtangasi yordamida old tomondan, ko'krak bezlarining eng baland nuqtalari ustida, orqadan esa ko'krak suyaklarining turtib chiqib turgan nuqtalari ustidan o'lchanadi;  $d_{\text{old.or.s}}$  (112) — son aylanasi sathidagi old-orqa diametri (12-rasm, b) — antropometrning yuqorigi shtangasi yoki katta sirkul

bilan o'lchanadi;  $d_{\text{old\_ord}}$  (111) — belning old-orqa diametri (12-rasm, e) — antropometrning nomerlari va ta'risi texnik hujjatlarda berilgan.

### **1.3.3. Odam gavdasining o'lchamlari tasnifi va kiyimning o'lcham standartlari**

Aholi uchun ko'plab kiyim ishlab chiqarishda hammaning gavdasini o'lchash va har bir kishining o'lchamini aniqlashning iloji yo'q, albatta. Shunga ko'ra aholi o'rtasida qanday gavdali odamlar ko'proq uchrasha, kiyimlar ana shunday kishilarga mo'ljallab tikiladi. Standart gavdalarning oqilona tuzilgan tizimi o'lchamlar tasnifi (o'lchamlar tipologiyasi) deb ataladi. O'lchamlar tasinifini oqilona tuzish vazifasi, mumkin qadar kamroq gavdalar turini tanlab, kiyim o'lchamlari aholini ko'proq qanoatlantirishiga erishishdan iborat. Standart gavdalarning optimal soni aholini qanoatlantiradigan bo'lishi lozim.

Mavjud standartlarda bu masala ko'proq uchraydigan gavdalarga qarab hal qilingan: ming kishi orasida kamida 0,1 foizni tashkil etadigan gavdalar turi standartga kiritilgan.

Tekshirilishi lozim bo'lgan kishilar soni bosh vakillar majmuyi deb, uning bir qismi esa terma vakillar deb ataladi. Terma vakillar ichida muayyan jussali kishilar bosh vakillar majmuyidagidek ko'p uchrasagina ular e'tiborga loyiq hisoblanadi.

Terma vakillarga alohida talablar qo'yiladi: ular orasidagi shaharliklar bilan qishloqliklar soni o'rtasidagi nisbat (aholi ro'yxatiga muvosiq) foizlarda ifodalanishi, bolalar va erkaklar yosh guruhlaringin foizlarda ifodalangan nisbati hisobga olingan bo'lishi, shaharlik vakillarga og'ir va yengil sanoat sohalarida mehnat qiladigan ishchi va xizmatchilar kiritilishi lozim.

Shu talablarga binoan, katta yoshdagi aholidan 1500—2000 kishining, har bir yoshdagi bolalardan esa 100—150 kishining gavdasini o'lhash zarur.

O'lchamlar tasnifini hamda o'lchamlar antropologik standartlarini tuzish vaqtida quyidagi masalalar hal qilinadi: yetakchi o'lchov belgilari tanlanadi; har bir yetakchi belgi bo'yicha o'lchovdagi farqsizlik interval belgilanadi; standart jussalarning optimal soni belgilanadi; tobe o'lchov belgilarining qiymatlari hisoblab chiqariladi; gavda jihatdan tanlab olingan turdag'i kishilar aholi ichida qanchaligi aniqlanadi.

Erkaklar kiyimi o'lchamlarining tasnifini tuzish uchun quyidagi yetakchi o'lchov belgilari qabul qilingan:  $R$  — bo'y;  $O_k$  — ko'krak aylanasi, uchinchi;  $O_{bel}$  — bel aylanasi. O'g'il bolalar uchun bo'y (bo'y) hamda ko'krak aylanasi (uchinchi) ni bildiradigan belgilar qabul qilingan.

O'lchamdan chetga chiqish chegarasi, boshqacha aytganda, o'lchamlardagi farqsizlik intervali quyidagilardan iborat: bo'y va bel aylanasi bo'yicha — 6 sm (3 sm); uchinchi ko'krak aylanasi — 4 sm (2 sm).

Standart kiritilgan gavdalarning har biriga xos yetakchi va tobe o'lchov belgilari qiymati mavjud; shu bilan birga, tobe o'lchov belgilari qiymati juda ko'p regressiya tenglamalari bo'yicha aniqlanadi.

Erkaklarning standart gavdalari to'rtta to'lalik guruhi bilan ko'rsatilgan. Gavdaning to'lalik darajasi ko'krak aylanasi (uchinchi) qiymatining bel aylanasi qiymatiga nisbati bilan belgilanadi. Birin-ketin keladigan to'lalik guruhlari bir nomdagi bel aylanasi va bo'yga mansub standart gavdalari bir-biridan bel aylanasi bo'yicha olingan to'lalik aro intervallar qiymaticha farq qiladi.

To'lalik guruhlari, o'z navbatida, o'lcham guruhchalariga ajratilgan. Erkaklar uchun ko'krak aylanasi Ok bo'yicha o'lchamlar diapazoni 84—128 ni, ya'ni 12 nomerni o'z ichiga oladi. O'lchamlarning birinchi kichik

guruhi: 2—4 to'lalik guruhlari uchun 84—104 o'lchamlar, 1-to'lalik guruhi uchun — 92—112 o'lchamlar kiritiladi. Erkaklar uchun jami 6 ta to'lalik o'lcham kichik guruhi belgilanadi.

Kichik guruhchalar ichida standart gavdalar bo'yи bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Har bir guruhcha uchun muayyan yosh belgilangan: kichik yosh guruhiiga 18—29 yoshdagи kishilar, o'rtа yosh guruhiiga 30—44 yoshdagи kishilar va katta yosh guruhiiga 45 yoshdan oshgan kishilar kiritiladi.

Har bir guruhchada baza tur ko'zda tutilgan; kiyim shu turga mo'ljallab loyihalanadi va modellashtiriladi. Yosh belgilarini nazarda tutib, kiyimni 15 ta asosiy turga mo'ljallab loyihalash kerak.

Mamlakatimizdagi barcha bolalar 5 o'lcham yosh guruhiiga kiritilgan.

O'spirinlar guruhi akselerat (tez o'sadigan) yoshdagи bolalar guruhini ham o'z ichiga oladi. O'lchamlarning bo'y bo'yicha variantlari shunday tanlanganki, ular katta yoshdagи kishilar o'lchamlarining bo'yini ifodalavchi qiymatlarning tutash qatorini tashkil etadi.

Shunday qilib, tarmoq standartlari quyidagilarni belgilab beradi: ko'plab kiyim tayyorlash uchun kerak bo'ladigan standart jussalarning maksimal sonini; standart gavdalar tasnifini; kiyimlar loyihalanadigan baza standart gavdalarni; standart gavdalar o'lchov belgilarining qiymatlarini.

#### **1.4. KIYIMNING O'LCHAMLARI, TUZILISHI VA KONSTRUKSIYASI TAVSIFI**

##### **1.4.1. Kiyimning ichki o'lchamlari va tuzilishi tavsifi.**

**Kiyim to'kisligi uchun beriladigan qo'shimcha haqlar**

Zamonaviy kiyim juda xilma-xildir, uning tuzilishi va o'lchamlari odam gavdasining o'lchamlari va tuzilishi, moda yo'nalishi mo'ljallanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kiyimning tuzilishi deb, bevosita odam tanasida kiyim hosil qiladigan fazoviy sirtga aytildi.

Kiyimning ichki va tashqi tuzilishi va o'lchamlari ajratiladi.

Kiyimning ichki o'lchamlari va ularga tegishli odam gavdasi o'lchamlari orasidagi farqga kiyim to'kisligi uchun beriladigan qo'shimcha haq deyiladi.

Kiyimning ichki va tashqi o'lchamlari orasidagi farqga konstruktiv-dekorativ qo'shimcha haq deyiladi.

Umumiy to'kislik uchun qo'shimcha haq miqdori to'kislik uchun beriladigan qo'shimcha haqning eng kam miqdori va konstruktiv-dekorativ qo'shimcha haqning yig'indisiga teng, ya'ni:

$$P_j = P_{\min} + P_{k.dj}$$

Kiyimning ichki o'lchamlari va odam gavdasining o'lchamlari nisbati turli uchastkalarda bir xil emas. Masalan, korset buyumlar tanaga eng yopishib turadigan kiyim turi bo'lib, ular nafaqat tanani qofiyalaydi, balki uning alohida qismlari (ko'kark, qorin)ga aniq shakl beradi.

Tikuvchilik buyumlarining boshqa turlari bir uchastkalarda erkin tursa, boshqasida esa tanaga yopishib turadi. Kiyim yopishib turadigan tana qismlarini tayanch sirtlar deb atashadi.

Tayanch sirlarning joylanishiga qarab kiyimlar ikki guruhga bo'linadi:

— yelkaga oid kiyimlar — yelka qismiga suyanib, bo'yin, tana va qo'l-oyoqlarni yopadi;

— belga oid kiyimlar — tos bel qismiga suyanib, tananing pastki qismi va oyoqlarni yopadi.

Kombinezonlar ham yelkaga, ham belga oid kiyimlar hisoblanadi. «Odam-kiyim» tizimining statikada mavjud bo'lishining zarur sharti — kiyimning o'lchami va shaklining odam tanasiga taalluqli qismlari o'lchami va shakliga mos kelishidir.

Kiyimdan foydalanish jarayoni «odam-kiyim» tizimida odam va kiyimning o'zaro ta'siridan kelib chiqadi.

Tayanch sirtlardan pastda joylashgan uchastkalarda kiyimning ichki sirti va odam tanasi o'rtasida bo'shliqlar hosil bo'ladi. Bu bo'shliqlar nafas olish va harakatlar erkinligi, shuningdek, odam kiyimda o'zini normal xis qilishini ta'minlash uchun zarurdir. Bo'shliqlarni hosil qilish uchun kiyimning ichki o'lchamlarini odam tanasi o'lchamlaridan kattaroq qilib loyihamanadi.

Kiyim to'kisligi uchun qo'shimcha haqlar. To'kislik uchun qo'shimcha haqning minimal qiymati  $P_{\min}$  nafas va harakat erkinligini, odam tanasiga ko'rsatadigan minimal bosim miqdorini va kiyim osti bo'shlig'ining hosil bo'lishini ta'minlashi shart.

Qo'shimcha haqning minimal qiymatini aniqlash uchun asos sifatida dinamikada odam tanasining o'lchamlari o'zgarishini o'rganish hisoblanadi.

To'kislik uchun qo'shimcha haqning minimal qiymati  $P_{\min}$ , avvalo, buyumning kengligini aniqlovchi — ko'krak aylanasi uchun hisoblanadi. Masalan, maxsus kiyimlar uchun uning miqdori odam tanasining o'lchamlarining o'zgarishiga teng. Maishiy kiyim uchun  $P_{\min}$  miqdori odam tanasining chuqur nafas olgan holatidagi o'lchamiga teng.

To'kislik uchun qo'shimcha haqning materiallar xossalariга bog'liqligi. Kam cho'ziluvchan materiallardan kiyim konstruksiyalashda musbat qiymatli, yaxshi cho'ziluvchan trikotaj matoli kiyimlar uchun esa nol yoki manfiy qiymatli qo'shimcha haqlar qabul qilinadi.

#### **1.4.2. Kiyim tashqi va ichki o'lchamlarining bog'liqligi. Kiyim materiallari qalinligiga beriladigan qo'shimcha haqlar**

Bir qavatli kiyimda (ichki kiyim, ko'yak) ustki va ichki o'lchamlar bir xil bo'ladi.

Ko'p qavatli kiyimda esa, uning ustki va ichki sirtlari o'rtasida bir necha qavat material mavjuddir: astar, qotirma, avra, qishki kiyimda yana — issiqlik qatlami. Bunda kiyimning ustki o'lchamlari uning ichki o'lchamlaridan materiallar qalinligi miqdoriga (P<sub>m,q</sub>) qarab kattaroq qilib loyihalanadi. Ko'p qavatli kiyim materiallari qalinligi uchun, to'kislik uchun qo'shimcha haq miqdori quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$P_{m,q} = \sum (\delta_{ast} + \delta_{or.q.} + 0,5_{avr}) + \sum \delta_{iz.qat}$$

bunda:  $\delta_{ast}$  — astar qalinligi, sm;  $\delta_{or.q.}$  — oraliq qotirma qalinligi, sm;  $\delta_{iz.qat}$  — isituvchi qatlam qalinligi, sm;  $\delta_{avr}$  — avra qalinligi, sm.

Materiallar qalinligiga qo'shimcha haq kompozitsion qo'shimcha haqning tarkibiy qismi hisoblanadi.

#### **1.4.3. Kompozitsion qo'shimcha haqlar**

Kompozitsion haqlar deb, ko'krak yarimaylanasi (P16), bel yarimaylanasi (P18), son yarimaylanasi (P19), yelka aylanasi (P28) ga qo'shimcha haq va materiallar qalinligiga ( $P_{m,q}$ ) qo'shimcha haqlarning yig'indisiga aytildi.

Kompozitsion qo'shimcha haqning miqdori rassom-modeler va konstruktoring model ustidagi ishi jarayonida aniqlalandi va kiyim turiga, siluetiga va moda yo'nalishiga qarab aniqlanadi.

Zamonaviy kiyim shaklini yaratish uchun, nafaqat kompozitsion qo'shimcha haq miqdorini aniqlash, balki, uni orqa yeng o'mizi va old bo'laklari o'rtasida kiyim kengligi bo'yicha taqsimlanish tavsifini ham aniqlash kerak.

Kompozitsion qo'shimcha haqning taqsimlanish tavsifi ko'pincha kiyimning mo'ljallanishiga bog'liq.

**Turli xil ko'rinishdagi va siluetli yelkaga oid kiyimlarning kompozitsion qo'shimcha haqlari, sm**

Kiyim turi va silueti	P16	P18	P19	P28
		Pidjak		
Qisman yopishib turadigan	7 – 8	8 – 10	4 – 5	10 – 11,5
To'g'ri	8 – 10	–	modaga qarab	11,5 – 12,5
Yopishib turadigan	6 – 7	4 – 5	4 – 5	10 – 11
		Ko'ylyak		
Qisman yopishib turadigan	4 – 5	8 – 10	>1,5	6 – 8
To'g'ri	5 – 6	–	modaga qarab	6 – 8
Yopishib turadigan	3 – 4	3 – 4	>1,5	6 – 8

#### **1.4.4. Kiyimning tashqi tuzilishi va konstruksiysi**

✓ Kiyimning tashqi tuzilishi uning ichki tuzilishi bilan va konstruktiv-siluet chiziqlari bilan aniqlanadi. ✓

Siluet chiziqlari kiyimning proporsiyalari, hajmiy shakli va tashqi ko'rinishini tavsiflaydi.

✓ Konstruktiv chiziqlar kiyim sirtini alohida qismlarga bo'ladi (detallarga) va shuning natijasida kiyimning hajmiy shakli vujudga keladi. ✓

✓ Kiyim silueti bu modani aniqlovchi kompozitsiyaning asosiy elementlaridan biridir. ✓

✓ Hozirgi vaqtida to'g'ri, tanaga yopishib turadigan, tanaga qisman yopishib turadigan va trapetsiyasimon siluetlar klassik siluetlar hisoblanadi. ✓


Kiyimning bichimi deb, yeng va boshqa detallarning bichilishiga aytiladi. Hozirgi vaqtda quyidagi yeng

bichimlari sanoatda uchraydi: o'mizga o'tkazma yeng, reglan, yaxlit bichilgan yeng. Yuqorida aytilgan yenglar ning birikmasi yangi yeng turi: kombinatsiyalangan yeng bichimini tashkil yetadi.


Yenglar detallarining soniga qarab bir chokli, ikki chokli va uch chokli bo'ladi.

Kiyimning bichimi old va orqa detallarining bo'ylama va enlama choklari bilan ham tavsiflanadi.

Kiyim o'zining bo'ylama choklari soniga qarab, choksiz (baxyo), bir chokli (baxyo va orqa detalning o'rta choki), ikki chokli (2 yon choklari), uch chokli (baxyo va orqa detalning o'rta choki), ikki chokli (2



13-rasm. Yelkaga oid kiyimlar sırtining bo'llinishi.



14-rasm. Belga oid kiyimlar sirtining bo'linishi.

yon choklari), uch chokli (2 yon choki va orqa o'rta choki), to'rt chokli (2 yon bo'laklarini tikish orqa, va old choklari), olti chokli (2 yon choklari va 4 relyef choklari old va orqa bo'lakda).

Quyida yelkaga oid kiyimlarning (13-rasm) va belga oid kiyimlar (14-rasm) sirtining bo'linishi ifodalangan.

Kiyimning bichimi old va orqa, detallarining bo'ylama va enlama choklari bilan ham tavsiflanadi. Kiyim o'zining bo'ylama choklari soniga qarab, choksiz

(baxya), bir chokli (baxya va orqa detalning o'rta choki), ikki chokli, (2 yon choklari) uch chokli (2 yon choki va orqa o'rta choki), to'rt chokli (2 yon bo'laklarini tikish orqa va old choklari), olti chokli (2 yon choklari va 4 relyef choklari old va orqa bo'lakda) bo'ladi.

### **Kiyim konstruksiyasining tavsifi**

Konstruksiya lotincha so'z bo'lib, aniq bir narsani qurish ma'nosini bildiradi. Kiyim konstruksiyasini quyidagi pozitsiyalar bo'yicha ta'riflash mumkin: tashqi tuzilishi (silueti va bichimi), detallarning konstruktiv qurilishi, biriktiruvchi choklar turiga va materiallariga qarab.

## **II. KIYIMNI KONSTRUKSIYALASH USULLARINING QISQACHA TAVSIFI**

---

### **2.1. KIYIMNI KONSTRUKSIYALASH USULLARINING UMUMIY TAVSIFI VA TASNIFI**

Kiyim va uning alohida qismlari tikilgandan keyin hajmiy sirtni shakllantiradi. Kiyim detallari tekis materialdan bichiladi. Masalan, matodan, trikotajdan, to'qilmagan materiallardan. Shuning uchun kiyimlarni konstruksiyalashning asosiy vazifalaridan biri tekis materialdan hajmiy shakli jismlarning qobiqlarini hosil qilishi va teskari masalani yechish, ya'ni kiyim qismlarining sirtlarini tekislikda yoyish — kiyim detallarining yoyilmasini hosil etishdan iboratdir. Sirtning yoyilmasi deb, tekislikda hosil bo'lgan geometrik gavdaga aytildi.


#### **Kiyimlarni konstruksiyalashga oid sirtlarning yoymasini qurishning umumiy tamoyillari**

Barcha hajmiy sirtlar yoyiladigan va yoyilmaydigan sirtlarga bo'linadi.

Yoyiladigan sirtlar — bu fazoviy shakldan tekis shaklga o'tish jarayonida choklar va burmalar, ya'ni hech qanday shikastlanishlar hosil qilmaydigan sirtlarga aytildi.

Yoyiladigan sirtlarning yoyilmalari shakli va konfiguratsiyasi yoyilish jarayonida o'zgarmaydi, ya'ni to'g'ri chiziqlar to'g'riligicha qoladi, fazoviy sirdagi burchaklar esa tekislik sirtidagi burchaklarga teng bo'ladi. Sirtning biron-bir qismining yuzasi tekislikda yoyilganda o'zining miqdorini o'zgartirmaydi (15-rasm, a).

Ma'lumki, ikki xil yoyiladigan sirtlar mavjud: urinma va fazoviy egri chiziq bilan hosil qilingan sirtlar (urinma sirtlar) hamda aylana sirtlar (silindrik va konussimon).



15-rasm. Yoyiladigan (a) va yoyilmaydigan (b) sirtlar.

Tekislikning egrilik o'lchami Gauss, ya'ni to'liq egrilik hisoblanadi:

$$K = \frac{1}{R_1 R_2}$$

bu yerda:  $R_1$  va  $R_2$  — sirtning asosiy egriliklari radiuslari. Yoyiladigan sirtlarning Gauss egriligi  $K = 0$ . Bu sirtlar chiziqli bo'lib, ular to'g'ri chiziqlar hosil qiladi. Shu to'g'ri chiziqlarning radiusini cheksizlikka teng aylanalar yoyi deb hisoblasak.

$$K = \frac{1}{\infty R_2} = 0.$$

Demak, barcha yoyiladigan sirtlar deformatsiyasiz tekislikda yoyilishi mumkin. Yoyilmaydigan sirtlarning

asosiy egriliklarining ikkala radiusi ham cheksizlikka teng emas ( $R_1 \neq \infty$ ,  $R_2 \neq \infty$ ), shuning uchun  $K \neq 0$ . Bu sirtlarni o'zgarmas holda tekislikda yoyib bo'lmaydi. Agar shunday sirdan yoyilma olish zarur bo'lsa, unda sirtning faqat taxminiy yoyilmasini olish mumkin (15-rasm, b). Sirtni qattiq jismdek emas, balki yumshoq cho'ziluvchan plyonkadan tayyorlangan deb faraz qilsak, uning yoyilmaisni tekislikda olish mumkin bo'ladi. Lekin faqat uni deformatsiyalab yoki choklar va buramalar hosil qilish yo'li bilan amalga oshirish mumkin. Bunda tekislik qismlarga bo'linadi, so'ng har bir qism yoyiladigan sirt (silindrik yoki konussimon) approksimatsiyalanadi va yoyiladi. Shunday qilib, sirtning bo'laklangan taxminiy yoyilmasi hosil qilinadi.

Dastlabki ma'lumotlar tavsifiga qarab mavjud bo'lgan konstruksiyalash usullarini 2 sinfga bo'lish mumkin.

I sinfga mansub usullar, turli odam gavdasining o'lchamlariga va qo'shimcha haqlarga kiyim detallarini turli bo'laklanishi hamda ularning shakl hosil qilishi haqida ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, ular kiyim detallarining muhim konstruktiv nuqtalari joylanishini taxminan aniqlaydi.

II sinfga mansub usullar, ancha aniq bo'lib, ular kiyimning etalon — nusxasining yoyiladigan sirtini o'lchashga asoslangan. Kesishuvchi sirtlar usuli, Chebishev usuli, mulyaj va to'r-kanova usullari shular jumlasidandir. II sinf usullari materialning geometrik strukturasida ro'y beradigan o'zgarishlarni hisobga olishga asoslangandir.

Materialarning geometrik strukturasining o'zgarishi, ularning fazoviy holatdan tekis holatga o'tishi natijasida ro'y beradi.

II sinfga mansub konstruksiyalash usullari turli yo'llar bilan olib boriladi. Masalan, o'zaro kesishuvchi sirtlar usuli — grafik va analitik usullari bilan; Chebishev turlari usuli 5 usul bilan:

- 1) grafik;
- 2) to'r-kанва usuli;
- 3) tekis akslar usuli;
- 4) aralash usul;
- 5) analitik usullar.

Kiyimni loyihalashda konstruktiv parametrlarni aniqlashning umumiy prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

Kiyimni konstruksiyalashda grafik qurishlarning asosiy elementlari quydagilardan iboratdir: kiyim va uning alohida detallarining gabarit o'lchamlarini aniqlovchi gorizontal hamda vertikal konstruktiv chiziqlardan iborat bazis to'mi chizish; chizmaning konstruktiv nuqtalar joyini yoylar yordamida aniqlash; andazali egri chiziqlarni chizish.

## 2.2. KIYIMNI KONSTRUKSIYALASHDA QO'YILADIGAN QO'SHIMCHA HAQLAR VA ULARNI HISOBЛАSH

Kiyim odam tanasining shakli va o'lchamlariga mos holda tayyorlanadi. Gavdaning turli uchastkalarida kiyim bir xil yopishib turmaydi, lekin har doim kiyim bilan odam tanasining orasida uning bermalol nafas olib harakat qilishi uchun zarur bo'lgan havo bo'shlqlari bor. Kiyimning ichki o'lchamlari bilan ularga mos odam tanasining o'lchamlari orasidagi farq to'kislik qo'shimchalari deyiladi.

To'kislik qo'shimchasi texnik va dekorativ konstruktiv qo'shimchalaridan iborat. Texnik qo'shimcha — odam tanasining atrofida o'zini normal sezishi uchun normal mikroiqlim yaratish uchun zarur bo'lgan minimal qo'shimchadir. Uning qiymatida material qalinligi ham hisobga olingan. Texnik qo'shimcha kiyimning faqat ko'ndalang o'lchamlariga beriladi. Lekin vaziyatga qarab (agar kiyim belbog'li bo'lsa erkin harakatlanishiga, qaytarma yenglarda esa — ichida biroz to'kislikka) kiyim uzunliklariga ham beriladi.

Texnik qo'shimchaning qiymati, kiyimning vazifasiga qarab, antropolog va gigiyenistlar yordamida hal qि-

lingan. Masalan: maishiy kiyim qo'shimchasi erkin nafas olishni ta'minlasa, maxsus kiyim qo'shimchasi esa keskin harakatlarda tana o'lchamlari o'zgarishini hisobga olgan. Ko'krak chizig'ida kiyim kengligiga — texnik qo'shimcha o'zgarmas qiymatga ega: yengil ko'ylik uchun 2 sm jaket uchun 3 sm.

To'kislik qo'shimchasi R bosh harfi bilan belgilanadi. Bosh harfsining indeksi ushbu qo'shimcha qaysi uchastkaga taalluqlilagini bildiradi. Masalan: R<sub>k</sub> ko'krak chizig'i sathiga qo'shimcha. Bel va bo'ksa chiziqlarining to'kislik — texnik qo'shimchasi, odatda, ko'krak qo'shimchisidan kamroq bo'ladi. Ushbu qo'shimchalarining amaliyotda qo'llaniladigan nisbatlari quyidagicha:

- yopishib turadigan siluet uchun  $P_{bel} = (0,5 - 0,75) P_k$ ;
- $P_{bo'k} = 0,5 - P_k$ .
- sal yopishib turadigan siluet uchun  $P_{bel} = (0,75 - 1) P_k$ ;
- $G_{bo'k} = 0,75 P_k$ .

Dekorativ konstruktiv qo'shimchalar kiyimning vazifasiga, siluetiga hamda moda yo'nalishiga bog'liq. Ular kiyimning ham kengligiga, ham uzunligiga berilishi mumkin. Dekorativ konstruktiv qo'shimchalar yubka va shimplarning bel chizig'i nolga teng bo'lishi mumkin, yoki 20 sm gacha kattalashishi mumkin. Kiyim konstruksiyalash jarayonida hisoblashni osonlashtirish maqsadida kiyim erkinligiga umumiy qo'shimcha olinadi. Uning tarkibiga ham texnik, ham dekorativ konstruktiv qo'shimchalar kiradi, lekin hech qachon umumiy qo'shimcha minimal zarur qo'shimchadan kam bo'la olmaydi. To'kislik qo'shimchalari kiyimning umumiy kengligiga yoki konstruksiyaning ayrim uchastkalariga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Kiyim kengligiga qo'shimchalar:

$P_k$  — ko'krak chizig'i kiyimning shaklini aniqlaydigan umumiy qo'shimcha;

$P_{bel}$  — bel chizig'iga qo'shimcha siluetga bog'liq qo'shimcha;

$P_{bel}$  — bel chizig'iga qo'shimcha.

Konstruksiyaning uchastkalariga qo'shimchalar:

$P_{org.k}$  — orqa kenglikka qo'shimcha. Bu ko'krak chizig'ining umumiy qo'shimchasining qismidek aniq-lanadi;

$P_{old.k}$  — old kengligiga qo'shimcha;

$P_k$  — qo'shimchaning qismi;

$P_{om.k}$  — o'miz kengligiga qo'shimcha.

Ushbu qo'shimchalar yig'indisi  $P_k$ . Yelkali kiyimlar konstruksiyasini tuzishda, odatda,  $P_k$  quyidagicha taqsimlanadi:

$P_{org.k} = 0,2 - 0,3 P_k$ ;

$P_{ko'kr.k} = 0,1 - 0,2 P_k$ ;

$P_{om} = 0,6 - 0,8 P_k$ ;

$P_{org.bel}$  — orqa belgacha uzunligiga qo'shimcha;

$P_{yeng.o'm}$  — yeng o'mizi chuqurligi bo'yicha to'kisligiga qo'shimcha;

$P_{yoqa.om} =$  yoqa o'mizining kengligiga qo'shimcha;

$P_{yoqa.om.chuq.}$  — yoqa o'mizining chuqurligiga qo'shim-cha;

$P_{yel.ayl}$  — yelka aylanasiga qo'shimcha.

### 2.3. KIYIMNING KONSTRUKSIYA ASOSLARI


Kiyimni konstruksiyalashda grafik qurishlarning asosiy elementlari quyidagilardan iboratdir: kiyim va uning alohida qismlarining gabarit o'lchamlarini aniq-lovchi gorizontal hamda vertikal konstruktiv chiziqlardan iborat bazis turini chizish; chizmaning konstruktiv nuqtalari joyini yoylar yordamida aniqlash; anda-zali egri chiziqlarni chizish; loyihaviy diskriminantlar yordamida ikkinchi tartibli egri chiziqlarni chizish; radiusografiya.

Yelkaga oid kiyim detallari yoyilmasining gabarit o'lchamlarini aniqlovchi gorizontal va vertikal chiziqlar turi 16-rasmda ko'rsatilgan. Kiyimning old va orqa


detallari uchun (16-rasm) asosiy gorizontal va vertikal chiziqlar quyidagicha nomlanadi: 1—1— orqa yoqa o'mizining asosi; 2—2— ko'krak; 2'—2'— yeng o'mizi chuqurligi; 3—3— bel; 4—4— son; 5—5— etak chiziqlari; I—I— orqa o'rta chizig'i, II—II—, III—III— va IV—IV— orqa, yeng o'mizi va umuman kiyimning kengligini aniqlovchi chiziqlar.

O'mizga o'tkazma yengning yoyilmasi gabaritlarini aniqlovchi gorizontal va vertikal chiziqlar to'ri (16-rasm, b) quyidagi nomlarga ega: 1—1— yeng boshi balandligi; 2—2— yeng o'mizi chuqurligi, 3—3— tirsak chizig'i, 4—4— etak chizig'i; I—I— va II—II— bu yengning old chizig'i joylanishini va yengning tayyor ko'rinishdagi kengligini aniqlovchi chiziqlar.

Belga oid kiyimlarning detallar yoyilmasi gabaritlarini aniqlovchi vertikal va gorizontal chiziqlar turi 17-rasmda ko'rsatilgan. Ayollar yubkasi yoyilmasi turining gorizontal va vertikal chiziqlari (17-rasm, a) quyidagicha nomlangan: 1—1— bel chizig'i, 2—2— son chizig'i; 3—3 — etak chizig'i; I—I— orqa o'rta chizig'i; II—II old



*16-rasm. Odam tanasining yuqori qismi uchun mo'ljallangan kiyimning detailari yoyilmasi chizmasini chizishdagi gorizontal va vertikal chiziqlarning bazis turi:*  
*a — old va orqa bo'lak; b — yeng.*



*17-rasm. Odam tanasining pastki qismi uchun mo'ljallangan kiyimning detallari yoyilmasi chizmasini chizishdagi gorizontal va vertikal chiziqlarning bazis turi:*  
*a — yubka; b — shim.*

orqa chizig'i; III—III- yon choki joylanishi. Shimning detallari yoyilmasi turning gorizontal chiziqlari (17-rasm, *b*) quyidagicha nomlanadi: 1—1— bel chizig'i; 2—2 — son chizig'i; 3—3 — qadam (dumba) chizig'i; 4—4 — tizza chizig'i; 5—5 — pastki qism. Vertikal chiziq faqat bitta — shimning old va orqa bo'laklarining o'rta (buklanish) chizig'i.

## 2.4. KIYIM DETALLARINING BOSHLANG'ICH CHIZMALARINI QURISH USULLARI

### 2.4.1. Umumiy ma'lumotlar

Hozirgi vaqtida kiyimning yangi modellarini yaratishda konstruksiyalashning taxminiy usullari (1-sinf usullari) qo'llaniladi.

Kiyim detallarining boshlang'ich chizmalarini chizish ikki bosqichdan iborat:

- detallar konstruksiya asosining chizmalarini chizish;
- shu baza asosiga model xususiyatlarini o'tkazish.

Asrlar davomida kiyim detallari mulyaj usuli bilan hosil qilinadi.

Mulyaj so'zi fransuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, buyum shaklini beruvchi qolipni bildiradi. Mulyaj usulida hech qanaqa hisoblar olib borilmaydi. Kiyim detallarining andazasini hosil qilish uchun maneken yoki odam tanasi ustiga qog'oz yoki mato yopiladi va tana tuzilishiga hamda model xususiyatlariga asoslanib detallar konturlari chiziladi. Detallar shakli bichish va tanaga kiygizib kelişhtirish jarayonida aniqlanadi. Bugungi kunda mulyaj usuli teatr kiyimlarini tikishda va murakkab shaklli detallar, vitachkalar va drapirovkalarni ayollar kiyimida modellashtirish va konstruksiyalash uchun qo'llaniladi.

XIX asrning boshida Fransiya, Rossiya va boshqa davlatlarda kiyimni konstruksiyalashning hisoblash usullari (bichish tizimlari) vujudga keldi. Bu usullarning mualliflari, o'zlarining ko'p yillik tajribalarini umumlashtirib, sodda hisoblashlarni tavsiya etgan bichuvchilar edilar. Chet ellarda va yurtimizda o'Ichov-hisoblash usulidan keng foydalaniladi. Ulardan dastlab, kiyimni shaxsiy buyurtmalar asosida tayyorlovchi bichuvchilar mehnatini osonlashtirishga mo'ljallangan bichish tizimlarida, keyinchalik sanotda ko'p miqdorda kiyim ishlab chiqarish jarayonida ham qo'llana boshlandi. Bunda buyurtmachi tanasining o'Ichovlari o'rniga, odam gavdasining asosiy o'Ichov belgilaridan sodda proporsional bog'lanishda bo'lgan hisoblashlar vujudga keldi. Bu usullar proporsional-hisoblash usullari deb atalardi.

Bugungi kunda hammaga ma'lum bo'lgan bichish tizimlari, kiyimning eng muvaffaqiyatli konstruksiyachizmalarini takror tiklash uchun mo'ljallangan o'z-gacha shaklli yozuvlardan iborat. Bu konstruksiyalarning birlamchi andazalari, oldin ishlab chiqilgan turli konstruksiyalar va eski modellarning chizmalarini qo'llagan

holda, tajriba yo'li bilan olinadi. Kiyimning sinov nusxalarini tayyorlash jarayonida andazalar to'g'riliqi aniqlanganidan so'ng, barcha andazalar to'g'ri burchakli rombga (to'g'ri burchakli koordinatalar tizimi) joylash-tirilib, alohida konstruktiv nuqtalarining va kontur chiziqlarning joylanishini aniqlovchi hisoblash formulalari tuziladi.

G. L. Truxan tomonidan bajarilgan barcha bichish tizimlarida qo'llaniladigan hisoblash formulalari taxlilidan ko'rsatdikki, barcha formulalarni uch-to'rtga bo'lish mumkin ekan.

1-tur. Detal o'lchami (R) unga taalluqli bo'lgan odam gavdasining o'lchami (M) va tekislik uchun qo'shimcha haq (P) yordamida aniqlanadi:

$$R = M + P$$

Bunday formulada odam gavdasi o'lchami va to'kislik uchun beriladigan qo'shimcha haq, choklar orasidagi farq e'tiborga olinadi. Bu formulalardan foydalanib, kiyim detallari o'lchamlarini to'g'ri aniqlanishi, konstruktur tomonidan kiyimning turli qismlariga beriladigan to'kislik uchun qo'shimcha haqlar miqdorini aniqlash qobiliyatiga bog'liq.

2-tur. Detal o'lchami, xususan, shu detal o'lchamini tavsiflaydigan odam gavdasining o'lchami (M) bilan aniqlanadi:

$$R = aM + vP + s$$

bu yerda: a, v, s — aniqlanilayotgan detal o'lchami va odam gavdasining o'lchami orasidagi taxminiy bog'-lanish koefitsiyentlaridir.

2-turdagi formulalar yordamida kiyim detallari o'lchamlarini aniqlanishining to'g'riliqi tajribada odam tanasi va kiyim o'lchamlari orasidagi bog'lanish qay darajada aniq topilganiga bog'liqdir. Bu bog'lanish

doimiy emas. Faqat aniq tana tuzilishi va aniq kiyim modellari uchun haqqoniyidir.

**3-tur.** Detallar o'lchamlar aniqligi 1- va 2-turdagi formulalarga qaraganda yanada kam. U bir tomondan izlanayotgan o'lchamning avval topilgan o'lcham qiymatidan o'zaro bog'liqligini to'g'ri qabul qilinganiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan — o'lchamning aniqligiga bog'liq.

Yangi kiyim modellarini yaratish ijodiy jarayoni doim amaliyotda nusxa (namuna) tayyorlash bilan tugaydi, chunki ko'pchilik bo'lg'usi detallar o'lchamlari (hisoblash formulalari tarkibidagi o'zgaruvchi miqdorlar) modeler-rassom va konstruktorning model ustida ishslash jarayonida aniqlanadi.

Shunday qilib, bichish tizimlari, kiyim detallari taxliliy chizmalarini chizishga imkon yaratadilar. Yangi kiyim modellarini yaratishda bichish tizimlaridan foydalanishning zarus sharti birlamchi nusxalar deb atalmish, bir yoki bir qator model namunalarini tayyorlash yo'li bilan konstruksiyani aniqlashdan iborat.

Sanoatda kiyimni konstruksiyalashning taxminiy usullarini takomillashtirish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. 1956-yil Tikuvchilik sanoati markazi ilmiy tekshirish institutida (TSMITI) sobiq sovet ittifoqining bir qator modellar uyi ishlarini umumlashtirish natijasida erkaklar kastumini konstruksiyalashning turli usuli yaratildi.

Usulning mohiyati va chizmalarni qurish texnikasi bo'yicha bu turli usul oldingi bichish tizimlaridan tubdan ajralib turmaydi. Bu usul bo'yicha ham chizmalarni qurish uchun dastlabki ma'lumotlar sifatida gavda o'lchamlari va hisoblash yo'li bilan topilgan qo'shimcha haqlar xizmat qiladi.

1-sinfga mansub konstruksiyalash usullarini takomillashtirish bo'yicha keyingi ishlar 1956—58 va 1966—70-yillarda ommaviy antropometrik izlanishlar olib

borish natijasida ishlab chiqarilgan sobiq SSSR va o'zaro iqtisodiy hamjihatlikka (O'IH) a'zo mamlakatlar ahollisining gavda tuzilishini tiplashtirish asosida amalga oshirilgan. TSMITI 1960—1966-yilar ishlab chiqarilgan kiyimni konstruksiyalash yagona usuli (KKYAU) shu ishlar jumlasidandir. Oldingi usullar oldida bu usulning ustunligi shundan iboratki, ommaviy ishlab chiqarishda kiyimni konstruksiyalashda qabul etilgan gavda tuzilishining aniq turlariga asoslangan.

Tikuvchilik sanoatida 1-sinf konstruksiyalash usulalarining rivojlanishi avval (1979—1980-y.) TSMITI ning erkaklar va ayollar kiyimini konstruksiyalash usulida, keyinchalik esa — o'zaro iqtisodiy hamjihatlik davlatlarining kiyimni konstruksiyalashni yagona usulida (O'IHD KKYAU) (1980—1986-y.) davom etdi.

Kiyim detallarining konstruksiyasini boshlang'ich chizmalar old va orqa detallarining konstruksiyasini ishlab chiqarishda boshlaydilar. Yeng va yoqa konstruksiyasi chizmalarini esa keyinchalik, ular o'lchamlari va shaklini old va orqa detallarning tegishli qismlari bilan chambarchas bog'liq holda quradilar.

Old va orqa detallar yoyilmasi chizmasini ko'pincha umumi gorizontal ko'krak, yeng o'mizi va bel chiziqli bir dona varaqda bajarishadi. Kiyim detallarining simmetrikligi nuqtayi nazaridan, chizmada old va orqa bo'laklarning faqat yarim qismi joylashadi.

## **2.5. KIYIM KONSTRUKSIYALARI VA KIYIMNING BAZALI ASOSLARINI KONSTRUKSIYALASH USULLARINING TAVSIFI**

### **2.5.1. Kiyim konstruksiyasining bazali asoslari haqida tushuncha va ular tasnifi**

Kiyim konstruksiyasining bazali asosi (BA) deb uchto'rt yilda bir marta yaratiladigan, aholining zamonaviy

o'Icham tipologiyasiga asoslangan to'kislik uchun qoshimcha haqlarning optimal qiymatlarini moda yo'naliishi bilan mos keltirib qabul qilingan asosiy detallarning (orqa, old, yeng) ratsional konstruksiyasiga aytildi.

Bazali asoslар, asosiy shakl hosil qiluvchi elementlarning (choklar, vitachkalar) turli xil joylanishini ko'rsatadi.

Bazali asoslар konstruksiyalari kiyimning har bir turi bo'yicha siluetlarga, bichimlarga, yosh-jins va o'Icham-to'lalik guruhlariga, materiallar turiga (gazlama, trikotaj va hokazo) qarab ishlab chiqariladi. Siluet va bichim kiyimning hajmiy-fazoviy shakli va konstruktiv tuzilishining umumiy tafsiflarini aniqlaydi.

Erkaklar pidjagi va ayollar paltosi bazali asoslari konstruksiyalari TSMITI usuli bo'yicha bat afsil berilgan. Shuning uchun, quyida erkaklar, ayollar va bolalar kiyimining bazali asoslari TSMITI usuli bo'yicha konstruksiyalashning faqat farqiy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz MDH a'zo davlatlarining kiyimni konstruksiyalashning yagona usuli.

Aytib o'tilgan usullarni qo'llash bilan barcha kiyim turlarining bazali asoslari chizmasini qurishning asosiy xususiyati shundan iboratki, ularning barchasi turli tuzilgan gavdalar o'Icham belgilariga asoslanganlar.

Ma'lumotni izohlashda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilamiz: avval kiyim detallari yoyilmasini qurish uchun kerak bo'ladi gan dastlabki ma'lumotlar tarkibini va tafsifini tahlil qilamiz, keyinchalik bazali asoslarning asosiy konstruktiv kesmalarini hisoblash va chizmasini qurish xususiyatlarida to'xtaymiz.

Bazali asoslarni konstruksiyalashda dastlabki ma'lumot sifatida odam tanasi haqida ma'lumotlar, ya'ni uning o'Icham birliklari qabul qilinadi. Kiyim silueti (shakli) kompozitsion qoshimcha haqlar majmuyi bilan aniqlanadi. Ularning qiymati kiyimning turi, materiali va siluetiga chambarchas bog'liqdir.

## **2.5.2. TSMITI usuli bo'yicha kiyim konstruksiyasini qurish xususiyatlari**

Odam tanasi tuzilishi haqidagi dastlabki ma'lumot 27 o'lcham qiymatlaridan, kiyim shakli haqida esa 20 ta qo'shimcha haqlardan iborat.

TSMITI usuli bo'yicha, konstruksiya asosi chizmalarini chizishni dastlabki hisoblashlardan boshlanadi. Avval yeng kengligi hisoblanadi va uning asosida yengning boshqa parametrlari (yeng boshi balandligi  $V_{yeng\ bosh\ bal.}$ , yeng boshi uzunligi  $D_{yeng\ bosh\ uz.}$ , yeng o'mizi uzunligi  $D_{yeng\ o'm.\ uz.}$ ,  
balandligi  $V_{o'm.\ bal.}$  va kengligi  $Sh_{yeng\ o'm.\ k.}$ ), orqa  $Sh_{org.}$  va old  $Sh_{old.}$  kengliklari, kiyim to'kisligi uchun umumiy qo'shimcha haq miqdori  $P_k$ , sm:

$$Sh_{yeng} = O_{yelk} + P_{o.yelk};$$

$$V_{o'm.} = d_{qo'l.v.} P_{yeng\ o'm.\ keng.} + P_{yost.} + 1;$$

$$V_{yeng.bosh.} = V_{yeng.\ o'm.} (1+N) + P_{yeng.bosh.bal.};$$

$$D_{yeng.bosh} = 1,51(0,5Sh_{yeng} + V_{yeng.bosh});$$

$$D_{o'm.} = D_{yeng.bosh}/(1 + N);$$

$$Sh_{yeng\ o.m.} = (0,6-0,62) \cdot (D_{yeng\ o'm.}-V_{yeng.o'm.}) - (P_{is.q.}-P_{yost.});$$

$$Sh_{org.} = Sh_{or} + P_{or.k} + P_{l.b.} + (0,3-0,4);$$

$$Sh_{old.} = Sh_k + (S_{kII} - S_{kl}) + P_{old.k} + P_{l.b.};$$

$$P_k = (Sh_{org.} + Sh_{old.} + Sh_{yeng\ o'm.}) - S_{kIII}$$

## **2.5.3. O'zaro Iqtisodiy hamjihatlikka a'zo davlatlarining kiyimni konstruksiyalashdagi yagona usulining tavsifi, tamoyillari va xususiyatlari**

O'IH a'zo davlatlarining kiyimni konstruksiyalashning yagona usuli (O'IH, KKYAU) universal usul

hisoblanib, erkaklar, ayollar va bolalar kiyimini konstruksiyalash uchun qo'llaniladi.

(O'IH, KKYAU) usulining eng umumiy va universal qismi bo'lib asosiy konstruktiv kesmalar tizimi va ularni aniqlash usuli hisoblanadi. Tizim barcha kiyim konstruksiyasi turlarida takrorlanadigan kesmalardan iborat bo'lib, ular ikki qismga bo'linadi (tananing yuqori va pastki qismlari uchun). Asosiy konstruktiv kesmalar tizimi moda, texnologiya va materiallar xossalariiga bog'liq emas.

Har bir hisoblash formulasiga o'zining tartibli raqami berilgan va barcha kiyim turlarini konstruksiyalashning umumiy ketma-ketligi ishlab chiqilgan.

Konstruktiv kesmalar o'z ichiga o'lcham qiymatlarini va turli qo'shimcha haqlarni oladilar. Konstruktiv kesmalarning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$AV = k_y T_y + a_y + P$$

bu yerda:  $AV$  — konstruktiv kesma;

$k_y$  — o'lcham qiymati qismini aniqlovchi koefitsiyent;

$T_y$  — o'lcham qiymatining tarkibli raqami;

$a_y$  — absolut a'zo;

$P$  — barcha qo'shimcha haqlarning summar miqdori.

## 2.6. AYOLLAR YUBKASINI KONSTRUKSIYALASH

Yubka konstruksiyasini qurish dastlabki hisoblashlardan boshlanadi. Buning uchun, orqa tomondan, bel chizig'idan yergacha bo'lgan masofadan yubka uzunligining ayirmasi aniqlanadi, so'ng old tomondan, bel chizig'idan yergacha va yon tomondan, bel chizig'idan yergacha masofa o'lchanib, natijada shu ketma-ketlikda old tomondan yubka uzunligi hamda yon tomondan yubka uzunligining qiymatlari aniqlanadi.

Normal gavdalarda to'g'ri bichilgan yubkalar konstruksiyasida yon qirqimning yuqori nuqtasi  $T_2$ , bel sathining gorizontal chizig'idan 1,5—2,5 sm teparoqda joylashadi. Uchi N nuqtada to'g'ri burchak quriladi. NT kesma orqa tomondan yubka uzunligiga teng va shuning bilan birga bu chiziq yubkaning orqa o'rta chizig'i hisoblanadi.

$$NT = D_{yub.uz.}$$

Bo'ksa chizig'ining joyi chizmada TB kesma bilan aniqlanadi:

$$TB = 0,5 (D_u - 2).$$

T va B nuqtalardan TB to'g'ri chiziqqa perpendikular o'tkaziladi. Bo'ksa chizig'ida yubkaning kengligi BB<sub>1</sub> kesma bilan aniqlanadi va bo'ksa yarim aylanasi S<sub>b</sub> o'lchami bilan to'kislik qo'shimchasi P<sub>b</sub>ning yig'indisiga teng bo'ladi:

$$BB_1 = S_b + P_b$$

Yubkaning old o'rta chizig'i B<sub>1</sub> nuqtadan vertikal o'tkaziladi. Uning etak chizig'i bilan kesishgan nuqtasi N<sub>1</sub> belgilanadi. Yubkaning old tomondan uzunligi:

$$N_1 T_1 = D_{yub. old}$$

Orqa bo'lagining bo'ksa chizig'ida kesiladi. (BB<sub>2</sub> kesma)

$$BB_2 = 0,5 (S_b + P_b) - (0-1) \text{ sm}$$

Ikkita orqa vitachkali yubkalar konstruksiyasida orqa bo'lagining kengligi kattalashtiriladi:

$$BB_2 = 0,5 (S_b + P_b) + 2$$

B<sub>2</sub> nuqtadan vertikal chiziq o'tkaziladi, etak chizig'i bilan kesishgan nuqtasi N<sub>2</sub> belgilanadi.

Yon tomondan yubkaning uzunligi  $N_2T_2$  kesma orqali aniqlanadi:

$$N_2T_2 = D_{yub. yon}$$

$T_1$ ,  $T_2$  va  $T_3$ ,  $T_4$  nuqtalar to‘g‘ri chiziq yordamida birlashtiriladi.

Bo‘ksa va bel chiziqlarida yubka kengligining farqi vitachkalaraga olinadi.

Ular kengligining majmuyi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\Sigma V = (TT_2 + T_2T_1) - (S_t + P_t) \text{ yoki}$$

$$\Sigma V = (S_t + P_t) - (S_t + P_t)$$

Vitachkalar eng do‘ng joylarining nuqtalariga yo‘nal-gan bo‘lishi kerak, shu bois ularning yo‘nalishi kattaligi va soni buyurtmachining tana tuzilishiga bog‘liq.

Normal gavdalar uchun 3 ta vitachka loyihalanadi. Old, orqa va yon vitachkalar.

Yon vitachkaning kengligi,  $0,5 \Sigma V$  ga teng,  $T_2$  nuqtaning ikki tomoniga yon vitachkaning yarmiga teng kesmalar qo‘yiladi. Orqa vitachkaning joyi aniqlanadi:

$$BB_3 = 0,4B_2$$

$B_3$  nuqtadan tepaga perpendikular ko‘tariladi, bel chizig‘i bilan kesishgan nuqtasi  $T_3$  deb belgilanadi. Orqa vitachkaning kengligi  $0,35\Sigma V$  ga teng.  $T_3$  nuqtadan bel chizig‘i bo‘ylab ikki tomonga orqa vitachkaning yarmiga teng kesmalar qo‘yiladi.

Old vitachkaning joyi:

$$B_1B_4 = 0,4 B_1B_3$$

$B_4$  nuqtadan tepaga perpendikular ko‘tariladi, bel chizig‘i bilan kesishgan nuqta  $T_4$  belgilanadi. Old vitachkaning kengligi  $0,15 \Sigma V$  ga teng  $T_4$  nuqtadan bel

chizig'i bo'yicha ikki tomonga old vitachkaning yarmiga teng bo'lgan kesmalar qo'yiladi.

Orqa vitachkaning uzunligi 15—17 sm, yon vitachka-jarniki 15—20 sm, oldniki esa 10—12 sm.

Vitachkaning tomonlari uzunrog'i bilan tenglashtiriladi va gavda yordamida shakllantiriladi.

Andazalarda tepe chiziq vitachkalar yopiq holda chizilgandek botiqroq o'tkaziladi. Qattiq gazlamali yubkalarda vitachkaning kengligini kamaytirish maqsadida, past bo'ksali, ingichka belli bo'ksa va bel aylanalarining farqi katta qiymatga ega bo'lgan gavdalar uchun, beshtagacha vitachka qo'yiladi.

Bunday gavdalarga mo'ljallangan yubkalarda gavdanning do'ngroq qismiga yo'nalgan eng keng vitachka ikkiga bo'linadi. Masalan, dumbasi juda chiqqan gavdalarga orqa vitachkaning kengligi 0,4—0,5 ΣV gacha kengaytirilib, ikkita vitachka qo'yiladi.

Ayni holda yon vitachka 0,35—0,4 old vitachka esa 0,15—0,2 ΣVga teng qilib olinadi.

Ingichka belli past bo'ksali gavdalar yubkasining konstruksiyasi maxsus yechimni talab qiladi. Ayni holda bel chizig'ida beshta vitachkali yubkalar tavsiya etiladi: bitta yon vitachka, ikkita orqa bo'lakda va ikkita old bo'lakda. Ular taxminan quyidagicha taqsimlanadi:

- yon vitachkaning kengligi 0,25 Σ;
- har qaysi orqa vitachkaning kengligi 0,2 ΣV ga teng. Birinchi vitachka orqa bo'lagining o'rtasidan (T nuqta) 9—10 sm masofada, ikkinchisi esa birinchi va yon vitachkalarning o'rtasida joylashtiriladi. Vitachkaning uzunligi 12—14 sm, old yon vitachkasining kengligi 0,15 ΣV ga teng. Old tomon o'rtasidan (T nuqta) birinchi old vitachkagacha masofa 9—10 sm. Ikkinchchi old vitachka birinchi va yon vitachkalar o'rtasida joylashtiriladi.


Vitachkalar uzunligi 10—12 sm.

Modelga mos holda vitachkalar o'rnini burmalar, mayda taxlamalar va taxlamalar bosishi mumkin. Ularning kengligi va joylashishi moda yo'nalishiga bog'liq.

Etagi kengaytirilgan yubka yon tomonlarining kengaytirilishi 0,5 D dan oshmasligi kerak.

Yubkaning orqa va old yoki orqa vitachkalar kengligining (0,5—1 sm) qismi taxlama yoki chokka o'tkaziladi.

Ko'p taxlama yubkalarda  $\Sigma V$  barcha taxlamalarga taqsimlanadi.



18-rasm. To'g'ri siluetli yubkaning konstruksiya chizmasi.

## 2.7. AYOLLAR KIYIMI DETALLARINING KONSTRUKSIYA ASOSI CHIZMASINI YARATISH

Yelka detallari konstruksiyasining asosiy chizmasi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarida qabul qilingan kiyim konstruksiyalashning yagona usuli bo'lishi hisoblash formulalari va grafik usullari yordamida yaratiladi.

Ushbu usul, yengil sanoatda qo'llaniladigan yagona va umumiyligida usulning ayrim murakkab formulalarini soddalashtirilganligi bilan farqlanadi. Soddalashtirilgan formulalar ham umumiyligida formulalarning tuzilishi kabi figuraning o'lchamlari va to'kislik qo'shimchasidan iborat.

Konstruksiya chizmasi  $A_0$  nuqtada to'g'ri burchak yaratishdan boshlanadi.  $A_0$  nuqtadan vertikal chiziq orqa bo'lakning o'rtasi hisoblansa, gorizontal chiziq — orqa bo'lak yoqa o'mizining eng yuqori nuqtasidan boshlanadi.  $A_0$  nuqtadan gorizontal chiziq bo'ylab o'ng tomonga ko'krak chizig'i kengligiga, ya'ni  $S_{k2}$ , o'lcham, ko'krak chizig'ida to'kislik qo'shimchasi  $P_k$  hamda orqa chiziq vertikaldan og'ishi, konstruksiyaga qo'shilgan chocklar kengligi, bo'rtma chocklar vitachkalarni hisobga olgan  $P_{l.b.}$  ga teng kesma  $A_0a_1$  qo'yiladi:

$$A_0a_1 = S_{k2} + P_k + P_{l.b.}$$

$a_1$  — nuqtadan pastga o'tkazilgan vertikal chiziq, old tomonning o'rta chizig'idir.  $A_0$  nuqtadan o'ng tomonga  $A_0a_1$  chiziq bo'ylab kesma  $A_0a$  qo'yiladi:

$$A_0a = Sh_{or} + P_{or.k.} \text{ (o'ng tomonga).}$$

Ko'krak chizig'ida old kengligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$a_1a_2 = Sh_{k1} + (S_{k2} - S_{k1}) + P_{kk}$$

Chap tomonga esa  $a_1$ , nuqtadan  $a_1, a_2$  kesma qo'yiladi.

Chizma normal bo'lмаган figuralar uchun yaratilganda, old bo'lak kengligi, ko'krak bezlarining eng bo'rtib chiqqan nuqtalaridan o'lchangan  $Sh_k$ , ko'krakning katta kengligidan foydalanib hisoblanadi:

$$a_1 a_2 = Sh_{k2} + Sh_k$$

$a_1$  va  $a_2$  nuqtalardan pastga o'mizning  $aa_1$  kengligini aniqlaydigan vertikal chiziqlar o'tkaziladi.

O'mizning kengligi minimal qiymatidan kam bo'lmasligi kerak. O'mizning minimal kengligi, sm.

2-jadval

Kiyimning turi	44	46	48	50	52	54	56	58	60
Ko'yylak	11	11,6	12,2	12,8	13,4	14	14,6	15,2	15,8
Jaket	11,7	12,3	12,9	13,5	14,1	14,7	13,3	15,9	16,5
Yengli palto	12,4	13	13,6	14,2	14,8	15,4	16	16,6	17,2

Vertikal chiziq bo'ylab  $A_0$  nuqtadan past tomonga kuraklar sathini aniqlaydigan  $A_0 U$  kesma tortladi:

$$A_0 U = 0,4 D_{or}$$

Orqa o'miz kengligining chizig'i (ko'krak chizig'i)  $G$  nuqta, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$A_0 G = V_{yeng\ o'm} + P_{yeng\ um.k} + 0,5 P_{org.uz.}$$

O'ng tomonga  $G$  nuqtadan gorizontal chiziq o'tkaziladi. U  $a_1, a_2, a_3$  nuqtalardan o'tkazilgan chiziqlar bilan kesishgan nuqtalari  $G_1, G_4$  va  $G_3$ , deb belgilanadi.

Bel chizig'inining boshi bo'l mish  $T$  nuqta aniqlanadi.

$A_0$  nuqtadan pastga vertikal chiziq bo'ylab  $A_0 T$  kesma tortiladi:

$$A_0 T = D_{\text{or.bel}} + P_{\text{or.bel.uz}}$$

Bel chuqurligi katta bo'lgan figuralarning bel chizig'i aniqlanganda, o'rqaning belgacha vertikal uzunligidan foydalaniladi.

$T$  nuqtadan o'ngga  $a_1$  nuqtadan o'tkazilgan vertikal chiziq  $T_1$ , nuqtada kesishguncha gorizontal davom ettiriladi.

Bel chizig'idagi  $T$  nuqtadan, vertikal bo'ylab pastga bo'ksa chizig'ini aniqlaydigan  $TB$  kesma tortiladi:

$$TB = 0,5 D_{\text{orq.bel}} - 2$$

$B$  nuqtadan esa o'ng tomonga gorizontal o'tkazilib  $a_1$  nuqtadan o'tkazilgan vertikal bilan kesishgan nuqtasi  $B_1$ , deb belgilanadi.  $T_1$ , nuqtadan past tomonga qarata qorin va ko'krak chiziqlarini bel chizig'ining holatiga ta'sirini hisobga olgan kesma qo'yiladi. Bel chizig'ining pasayishi  $T_1 T_2$  ga teng bo'ladi.

$T_1 T_2 = 0$  — bel chizig'ida yaxlit bichilgan kiyimlar uchun;

$T_1 T_2 = 0,5$  — bel chizig'ida qirqilgan;

$T_1 T_2 = 1-1,5$  sm qorin va ko'kragi katta figuralar uchun;

Old bo'lak yoqa o'mizining yuqori nuqtasi aniqlanadi —  $A_3$  nuqta;

$$T_3 A_3 = D_{\text{old.bel}} + P_{\text{old.bel.uz}}$$

$A_3$ , nuqtadan chapga gorizontal o'tkaziladi. Old bo'lagi ikki detalli kiyimlarda  $A_3$ , nuqtadan chapga quyidagi kesma qo'yiladi:

$A_3 A_{31} = 0,5$  sm — normal gavdalar uchun;

$A_3 A_{31} = 1-1,5$  sm — kekkaygan gavdalar uchun;

$A_3 A_{31} = 0$  bukchaygan gavdalar uchun.

$A_{31}$  yoki  $A_3$  nuqtadan chap tomonga va  $A_0$  nuqtadan o'ng tomonga yoqa o'mizining yuqori nuqtasini (o'miz kengligini) aniqlaydigan kemsalar qo'yiladi:

$$\begin{array}{ll} \text{Orqada} & - A_0 A_2 \\ \text{Old bo'lakda} & - A_3 (A_{31}) A_4; \end{array}$$

$$A_0 A_2 = A_3 A_4 = Sh_{bo'yin} / 3 + P_{yoqa o'm. ken}$$

Orqa yoqa o'mizining chuqurligi  $A_0 A (A_2 A_1) A_0$  nuqtadan vertikal bo'yicha pastga tushiriladi:

$$A_0 A = A_0 A_2 / 3 + P_{\text{orq.yoqa o'm. bel}}$$

bu yerda:  $A_0 A_2$  — orqa o'rta chok vitachkasi hisobga olinmagan holda.

Old yoqa o'mizining chuqurligi, o'rta hisobda, kengligidan 1 smga kattaroq:

$$A_{31} (A_3) A_2, q A_{31} (A_3) A_4 + 1 \text{ sm.}$$

Orqaning o'rta chizig'i bel chizig'ida gavda turiga va siluetga bog'liq holda 1—2,5 sm ga og'dirib o'tkiladidi (3-jadval).

3-jadval  
Orqa o'rta chizig'inining bel chizig'ida og'ish qiymati

Siluet	TT — og'ish qiymati			
	Orqa o'rta chokli		Orqa o'rta choksiz	
	vitachkali	vitachkasiz	vitachkali	vitachkasiz
To'g'ri	—	1	—	1,5
Yarim yopishgan	1	1,5	1,5	2
Yopishgan	1,5	—	2	—

$$TT_1 = 1 - 2,5 \text{ sm}$$

Kiyim uzunligi, orqa o'rta chiziq bo'ylab, A yoki T nuqtadan qo'yiladi:

$$AN = D_{\text{buyum}} + P_{\text{or.bel.uz}} + P_{i,b}$$

bu yerda:  $P_{i,b}$  — ishlov berish uchun qo'shimcha.

Orqa og'ish o'rta chizig'ining o'miz chuqurligi, bel, bo'ksa va etak chiziqlari bilan kesishgan nuqtalari  $G_1$ ,  $T_1$ ,  $B_1$ ,  $N_1$  belgilanadi.

Orqa bo'lak yelka chizig'ining uchi  $P_1$ , nuqta ikki yoy kesishgan nuqtasi:  $A_2$ , nuqtadan o'tkazilgan yoy radiusi  $R_1 = Sh_1 + \text{vitachka}$  va  $T_1(T)$  nuqtadan o'tkazilgan yoy radiusi  $R_2 = V_{yel,q} + P_{\text{or.bel.uz}} + P_{yeng\ o'm}$

$$R_1 = A_2 P_1 q Sh_{\text{old}} + \text{vitachka} \quad (\text{yoki kiritish haqi});$$

$$R_2 = T_1 P_1 = V_{yel,q} + P_{\text{or.bel.uz.}} + P_{yest}$$

bu yerda:  $P_{yest}$  — yelka yostiqchasining qalinligi.

Yelka chizig'i  $A_2 P_1$ , nuqtalarni birlashtirgan to'g'ri chiziq.  $P_1$ , nuqtadan vertikal chiziq aG<sub>1</sub> ga perpendikular tushirilib,  $P_2$ , nuqta olinadi.

Kuraklar vitachkasi yoqa o'mizining yoki yelka chizig'ining istalgan nuqtasidan boshlanadi.

Ko'proq vitachka  $A_2$ , nuqtadan yelka chizig'ida (0,25—0,5)  $Sh_1$  masofada boshlanadi.

Vitochkani belgilash uchun kuraklar chiqqan nuqta aniqlanadi. Bu nuqtalar  $V_1$ , masofada joylashgan:

$$V_1 = 0,4 Sh_{\text{or}}$$

Vitachka uzunligi 7—8 sm bo'ladi. Vitachkaning uchlari yelka chizig'ida tenglashtiriladi. O'miz chizig'ini qator yordamchi  $P_3$ , 1,  $G_2$ , nuqtalar bilan aniqlanadi.

$P_3$  tekshirish nuqtasi  $G_1$ ,  $P_3$  kesma yordamida aniqlanadi:

$$G_1 P_3 = P_2 G_1 / 3 + 2 \text{ sm.}$$

Aniqlangan kesma  $G_1$ , nuqtadan yuqoriga qo'yiladi va  $P_3$ , nuqta hosil bo'ladi. Burchak  $P_3G_1G_4$  bissek-trissasida  $G_1$ , 1 kesma o'lchanadi:

$$G_1 = 0,2 \text{ Sh}_{\text{o'm}} + (0,3 - 0,7) \text{ sm.}$$

bu yerda:  $\text{Sh}_{\text{o'm}}$  o'miz kengligi  $G_1G_4$ .

Orqa bo'lagining o'miz chizig'i  $P_1$ ,  $P_3$ , 1,  $G_1$ , nuqtalarni to'g'ri chiziq bilan birlashtiradi.

Old bo'lak chizmasida ko'krak markazining nuqtasi aniqlanadi.  $G_1$ , nuqtadan chapga  $G_1G_6$  kesma qo'yiladi.

$$G_1G_6 = S_1 + (0,5 - 1) \text{ sm.}$$

$G_6$ , nuqtadan pastga va tepaga vertikal chiziq o'tkaziladi.

Bel chizig'i bilan kesishgan nuqta  $T_6$  ( $T_{60}$ ) belgilanadi.

Ko'krak vitachkasini yaratish uchun markaz sifatida,  $A_4$ , nuqtadan  $V_k$  — ko'krak balandligi o'lchamiga teng bo'lgan radius yordamida, yoy o'tkaziladi.

$G_6$ , nuqtadan o'kazilgan vertikal bilan kesishgan nuqta  $G_7$ , belgilanadi. Bu nuqta vitachkaning uchidir.  $A_4G_7 = V_k$ .


$G_7$ , nuqtadan markaz sifatida  $G_7A_4$ , radiusli yoy chap tomonga o'tkaziladi va unga ko'krak vitachkasining kengligiga teng kesma o'lchab qo'yiladi.

$$A_4A_9 = 2(C_{k2} - S_{k1}) + (0 - 2) \text{ sm.}$$

Tana tuzilishi normaldan og'gan gavda uchun vitochka kengligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$A_4A_9 = 2(\text{Sh}_{k2} - \text{Sh}_{k1}) + (0 - 2) \text{ sm.}$$

$A_4$ ,  $G_7$ ,  $A_9$ , nuqtalarni birlashtirib ko'krak vitachkasi yasaladi. Vitachkaning kengligi 18 sm dan oshgan holda uni ikkiga bo'lib, detalning har xil qirqimlaridan markaz tomonga yo'naltiriladi.



19-rasm. Ayollar kiyimining asosiy detallari konstruksiya chizmasi.

Kiyimning shakli model bo'yicha ko'krak qismida yumshoq, yassiroq bo'lса, ko'krak vitachkasi enini ko'krak chizig'ida kiyimning hajmiga bog'liq holda 1—3 sm ga kamaytirish mumkin. O'miz balandligini aniqlash uchun  $G_4 P_4$  nuqtadan  $G_4 P_4$  kesma qo'yiladi:

$$G_4 P_4 = G_1 P_2 - 1 \text{ sm.}$$

To'g'ri chiziq bo'yicha  $G_4$  nuqtadan tepaga  $G_4 P_4$  kesma qo'yiladi:

$$G_4 P_6 = G_4 P_4 / 3.$$

O'ng tomonga  $P_6$  nuqtadan gorizontal chiziq o'tkaziladi va unda  $P_6 P_{60} = 0,6$  sm kesma qo'yiladi.

$P_4$  nuqtadan chap tomonga  $P_{60}$  markazdan  $P_6$ ,  $P_6$  radiusli yoy o'tkaziladi.  $A_6$  nuqtadan  $Sh_p$  yelka kengligiga teng radius bilan o'tkazilgan yoy avvalgi yoy bilan  $P_6$  nuqtada kesishadi.

Normaldan og'gan gavdalar uchun  $P_5$  nuqtaning to'g'riliqi  $A_5$ , nuqtadan yelka kengligiga teng radius bilan va  $G_5$ , nuqtadan old yelka qiya balandligi  $V_{yel.q.bal}$  radius bilan o'tkazilgan yoqlar kesishgan nuqtasi yordamida aniqlanadi.

$$G_5 P_5 = V_{yel.q.bal}$$

$$A_5 P_5 = Sh_{old}$$

$P_5$ , nuqta  $A_5$ , nuqta bilan birlashtirilib old bo'lakning yelka chizig'i hosil qilinadi.

$G_2 G_4 P_6$  burchak bissektrisasida  $G_4 2$  kesma qo'yiladi:

$$G_4 2 = 0,2 Sh_{o'm}$$

$P_5 P_6$  nuqtalar to'g'ri chiziq bilan birlashtiriladi.  $P_5 P_6$  kesma 3 nuqta orqali ikkiga bo'linadi. 3 nuqtadan perpendikular bo'yicha 3—4 kesma qo'yiladi.  $3 - 4 = 1$  sm. Old o'miz chizig'i  $P_5$ , 4,  $P_6$ , 2,  $G_2$ , nuqtalari orqali o'tkaziladi.

## 2.8. ERKAKLAR PIDJAGINING BAZA ASOSI KONSTRUKSIYASINI HISOBBLASH VA QURISH

Erkaklar pidjaginining konstruksiyasini TSMITI usuli bo'yicha qurish konstruksiyaning dastlabki hisobidan boshlanadi. Avvalo yengning kengligi  $Sh_{yeng}$  aniqlanadi:

$$\begin{aligned} Sh_{yeng} &= O_{yel} + P_{yel.ayl.}; \\ V_{yeng.b.} &= V_{o.m.} \cdot (1 + N_{chin}) + P_{yeng. bosh.}; \\ D_{yeng.bosh.} &= 1,51(0,5Sh_{yeng} + V_{yeng. bosh.}); \\ D_{yeng.o.m.} &= D_{yeng.bosh.} / (1 + N); \\ V_{yeng.o.m.} &= d_{qo'l.v.} + P_{yeng.o'm.k.} + P_{yos.} + 0,5; \\ Sh_{yeng.o.m.} &= 0,62 \cdot D_{o.m.} - V_{o.m.}; \\ Sh_{org} &= Sh_{or} + P_{or.k.} + P_{or.i.b.} + 0,3; \\ Sh_{old} &= Sh_k + (S_{kl} - S_{kl}) + P_{old.k.} + P_{old.i.b.}, \\ P_k &= (Sh_{org} + Sh_{old} + Sh_{o.m.}) - S_{kIII}. \end{aligned}$$

bu yerda:  $O_{yel}$ ,  $d_{qo'l.v.}$ ,  $Sh_{or}$ ,  $Sh_k$ ,  $S_{kIII}$ ,  $S_{kl}$ ,  $S_{kII}$  — odam gavdasining o'lehamlari,  $P_{yel.ayl.}$ ,  $P_{yeng.o'm.k.}$ ,  $P_{or.k.}$ ,  $P_{old.k.}$  — kompozitsion qo'shimcha haqlar.

$P_{yeng.bosh}$  — yeng boshi balandligiga qo'shimcha haq,  $N$  — yeng boshi chinlari normasi,  $P_{yos.}$  — yelka yostiqchasi qalinligiga qo'shimcha haq,  $P_{or.i.b.}$ ,  $P_{old.i.b.}$  — old va orqa detallarni ishlov berish uchun qo'shimcha haq.


### 4-jadval

**Erkaklar tipik gavdasining o'lchamlari (170—100—82)**

T/r	Gavda o'lchamining nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
1.	Bo'yinning yarim aylanasi	$S_{bo'in}$	20,5
2.	Ko'krakning 1-yarim aylanasi	$S_{kl}$	51,2
3.	Ko'krakning 2-yarim aylanasi	$S_{kII}$	52
4.	Ko'krakning 3-yarim aylanasi	$S_{kIII}$	50
5.	Belning yarim aylanasi	$S_{bel}$	41
6.	Bo'ksaning yarim aylanasi	$S_b$	50,5
7.	Orqa kengligi	$Sh_{or}$	20,5
8.	Ko'krak kengligi	$Sh_{old}$	19

1	2	3	4	5
17.	T <sub>3</sub> T <sub>3</sub>	4	4	4
18.	T <sub>o4</sub> T <sub>4</sub>	(T <sub>o4</sub> T <sub>5</sub> -S <sub>k</sub> )d/(V <sub>k b</sub> -V <sub>bel</sub> )	(21,5+4-11,3)3,8/(128,2-110,6)	3,1
19.	D	0,5[d <sub>old.or.bel</sub> -G <sub>bell</sub> ]-d <sub>old.or.k</sub> ]	0,5[21,7-4,7]-24,7]	3,8
20.	T <sub>4</sub> B <sub>2</sub>	0,5D <sub>or.bel</sub> -2,5	0,5-45,7-2,5	20,3
21.	T <sub>4</sub> T <sub>6</sub>	S <sub>k</sub> +P	11,3+1,5	12,8
22.	T <sub>4</sub> G	(D <sub>old</sub> -V <sub>k</sub> )+5·P <sub>old,bel,uz.</sub> +P <sub>i.b.</sub>	(55,8-34,4)+0,50,7+0,3	21,9
23.	G <sub>1</sub> G <sub>3</sub>	//T <sub>5</sub> T <sub>6</sub>		
24.	GG <sub>4</sub>	G <sub>1</sub> G <sub>2</sub> +P <sub>i.b</sub>		
25.	T <sub>6</sub> G <sub>1</sub> A <sub>3</sub>	D <sub>old,bell</sub> +[D <sub>or.bel.</sub> ]- (D <sub>or.bel fakt</sub> -P <sub>i.b.</sub> )]+P <sub>i.b.</sub>	44,9+[50,8-(48,5-0,3)]+0,9	48,4
26.	A <sub>3</sub> A <sub>4</sub>	G <sub>4</sub> A <sub>4</sub>		
27.	A <sub>4</sub> A <sub>5</sub>	0,45 S <sub>bo'yin</sub>	0,45 20,3	9,1
28.	A <sub>3</sub> P <sub>4</sub>	(V <sub>or.yel.</sub> +2)+P <sub>i.b.</sub> +P <sub>vost</sub> +0,5	(45,3+2,0)1,0+1,5+0,5	50,3
29.	T <sub>4</sub> P <sub>4</sub>	Sh <sub>old</sub> -0,5	15,6-0,5	15,1
30.	T <sub>2</sub> P <sub>5</sub>	28-33	33	33
31.	Δl	0,5(↑P <sub>1</sub> P <sub>5</sub> -↑P <sub>4</sub> P <sub>6</sub> )	0,5(11-9)	1
32.	PP <sub>5</sub> G <sub>5</sub>	0,56D <sub>pr</sub> -0,5Sh <sub>o'm</sub> +Δl	0,56·42,9-0,5·15,2+0,2	16,6
33.	G <sub>5</sub> G <sub>8</sub>	0,5Sh <sub>o'm</sub>	0,15·15,2	7,6
34.	G <sub>5</sub> I	0,15Sh <sub>o'm</sub> +1,5	0,15·15,2+1,5	3,8
35.	G <sub>6</sub> 2	0,15Sh <sub>o'm</sub>	0,15·15,2	2,3
36.	G <sub>o</sub> P <sub>7</sub>	5,5-6 sm	6	6
37.	P <sub>7</sub> 3	P <sub>4</sub> 3 · 0,5·P <sub>4</sub> P <sub>7</sub>		
38.	3-4	↑ P <sub>4</sub> P <sub>7</sub>		
39.	3-4	0,5-0,8	0,8	0,8
40.	T <sub>2</sub> T <sub>9</sub>	1,5-2	1,5	1,5
41.	B <sub>4</sub> B <sub>3</sub>	NN <sub>1</sub> =T <sub>4</sub> T <sub>9</sub> +0,5		
42.	T <sub>11</sub> T <sub>12</sub>	0,5-1	0,8	0,8
43.	B <sub>4</sub> B <sub>6</sub>	(S <sub>bo'k</sub> +P <sub>bo'k</sub> )-(B <sub>1</sub> B <sub>3</sub> +B <sub>2</sub> B <sub>5</sub> )	(50,5+4,5)-(18,5+25,5)	11
44.	T <sub>7</sub> K	0,25 D <sub>org.bel</sub> -7,0	0,25 45,7 - 7,0	4,4
45.	K <sub>2</sub> K <sub>21</sub>	1,5	1,5	1,5

1	2	3	4	5
46.	$K_2 K_5$	$K_2 K_3 + 1,5$	$8+1,5$	9,5
47.	$T_5 K_5$	$+ K_3 B_5 = T_{10} K_6 B_4$		
48.	$T_4 N_5$	$T_1 N + 1,5 + P_{1b}$	$34+1,5+0,3$	35,8
49.	$N_{55}$	$0,5 N_4 N_5$	$0,525,5$	12,7
50.	$S-6$	$0,5-0,7$	$0,6$	0,6



**20-rasm. Erkaklar pidjaginiнг konstruksiya chizmasи.**

lidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu usulni amaliyotda qo'llash uchun universal va sodda hisoblanadi. Yeng boshi chizig'i oraliq nuqtalarining joyi «a» nuqtadan o'tuvchi «X» o'qli va  $M_{10}V_0V_1$  va  $M_{20}V_0V_1$  uchburchaklarning medianalariga (m) parallel bo'lgan «u» o'qli egri burchakli koordinatlar tizimida aniqlanadi.

Yeng boshini yaratish uchun eng qulayi 0,5 loyihaviy diskriminantli parabolik egri chiziqlardir. Yeng boshi chizig'i uchta oraliq nuqtasining koordinatlari quyidagi formulalarda aniqlanadi:

$$X_1 = 0,25 \text{ a}; U_1 = 0,375^* \text{ m; yoki } U_1 = (3/8)^* \text{ m};$$

$$X_2 = 0,5 \text{ a}; U_2 = 0,5^* \text{ m; yoki } U_2 = (1/2)^* \text{ m;}$$

$$X_3 = 0,75 \text{ a}; U_3 = 0,375^* \text{ m; yoki } U_3 = (3/8)^* \text{ m.}$$

Yeng boshi kengligi  $Sh_{ok}$ ning chizig'i 4 bo'lakka bo'linadi. Bo'linadigan nuqtalar  $V_1$  va  $V_2$  dan yeng boshi egri chizig'iga urilmalar o'tkaziladi.  $V_0$  nuqtadan esa yeng boshining old va tirsak qismlariga egri burchakli koordinatlarning X o'qlari o'tkaziladi.

Tirsak perekati chizig'i joyini yeng kengligiga qarab aniqlanadi:

$$Sh_{yeng} = P_o G_{20} = 0,5(O_n + P_{yel.ayl.})$$

bu yerda:  $Sh_{yeng}$  — yengning tayyor ko'rinishdagi kengligi;  $O_n$  — yelka aylanasi;  $P_{yel.ayl.}$  — yelka aylanasiga berilgan qo'shimcha haq.


$G_{20}$  — nuqtadan o'tkazilgan vertikal tirsak perekati hisoblanadi, shu vertikal chiziqni yeng boshi chizig'i bilan tutashgan nuqtasi  $M_{21}$  bilan belgilanadi.

Yeng bosh chizig'inining oldi bilan tutashgan nuqtasi  $N_{12}$  bilan belgilanadi.  $N_{12}$  nuqtadan tuzilishiga mos holda yengning pastki qismini yasash uchun <=3-5° burchakka og'uvchi bo'ylama o'q o'tkaziladi va yeng boshining pastki qismi silliq egri chiziq bilan chiziladi.

$N_{10}$  va  $N_{20}$  nuqtalardan (21-rasm) to'g'ri keladigan qismlarining uzunliklari belgilanadi va bular  $O_{10}$  va  $O_{20}$  nuqtalari deb ataladi. Hosil bo'lgan  $O_{10} O_{20}$  yoyning uzunligi  $P_{chin} + 0,2$  sm ga teng bo'lishi kerak. Bu miqdordan oshgan taqdirda chizma hisoblarini va yaratish jarayoni takror tekshiriladi.

Yeng shablonining pastki qismi chizmasi adabiyotlarda berilgan tavsiyalarga asoslanib ko'rildi. Yeng uzunligi  $M_{12}$  nuqtadan o'tuvchi qiya chiziq bo'ylab qo'yiladi.  $O_{10}$  nuqtasi  $O_1$  nuqtadan qiya chiziqqqa perpendikular tushirilgan nuqtada joylashgan.

$$O_{10}N_1 = D_{um}; \quad O_{10}L_1 = D_{tir} \\ N_1N_{10} = O_{11} \cdot Sh_{yeng.uchi}; \quad N_1N_{11} = 0,5 Sh_{tir}$$



21-rasm. O'mizga o'tkazma yeng konstruksiya chizmasi.


Yeng uchining kengligi  $Sh_{r,n} N_{10}$  ni qiya chiziqning davomiga qo'yiladi va  $N_2$  nuqta bilan belgilanadi. Yengning old perekati tirsak chizig'i  $L_1 L_{10}$  bo'yicha egilishi 1–1,5 sm ga teng. Yengning tirsak chizig'i bo'yicha kengligi qo'ltiq osti qismidagi yengning kengligidan 1–2 sm kam. Yengning tashqi ko'rinishi shabloni chizmasida choklar va montaj belgilarining joylari ko'rsatiladi. Yeng detallarini yoyish grafik usul bilan, ya'ni yengning old tirsak choklarini old va tirsak o'mizi chizig'i bo'yicha simmetrik yaratish yo'li bilan amalga oshiriladi.

7-jadval

**O'mizga o'tkazma ikki chokli yengning konstruksiya chizmasining hisobi**

T/r	Konstruktiv kesma	Hisoblash formulasi	Hisob	Natija, sm
1	$OM_1$	$D_{yeng} = 1,5 + P_{i.b.}$	$65 - 1,5 + 1$	64,5
2	$OL_1$	$D_{yeng.tir.} + P_{yeng.bosh.} + P_{vost.}$	$34 + 1,2 + 1$	36,2
3	$OP$	$V_{yeng.bosh.} = V_{o'm}(1+N)$	$18,3(1+0,1)$	20,1
4	$001$	$0,5 \cdot Sh_{yeng}$	$0,5 \times 41,5$	20,7
5	$L_1 L_2$	$0,5 \cdot Sh_{yeng} - (0,5 - 1)$	$0,5 \times 41,5 - 0,6$	20,1
6	$M_1 M_0$	$0,5 \cdot Sh_{yeng.uchi}$	$0,5 \times 30$	15
7	$M_0 M_2$	2	2	2
8	$O_1 O_2$	$0,5(0,5 \cdot Sh_{yeng} - 2)$	$0,5 \times (0,5 \times 41,5 - 2)$	9,4
9	$O_2 O_3 = O_2 O_4$	$0,5 \cdot O_1 O_2$	$0,5 \times 9,4$	4,7
10	$O_2 O_{12}$	$0,5(V_{yeng.bosh.} + P_{yeng.bosh.})$	$0,5 \times (21,1 + 1,2)$	11,1
11	$RG_{22}$	$0,5 \cdot Sh_{yeng.o'm.}$	$0,5 \times 15,2$	7,6
12	$Ri, G_{23}$	$Sh_{yeng}: 4$	$41,5/4$	10,4
13	$G_{22} O_8$	$0,5 \cdot G_{22} R_3$	$0,5 \times 18,5$	9,5
14	$O_8 O_9$	2,5	2,5	2,5
15	$L_1 L_{11}$	1–1,5	1,5	1,5

T/r	Konstruktiv kesma	Hisoblash formulasi	Hisob	Natija, sm
16	RPR <sub>51</sub>	2,5	2,5	2,5
17	RPR <sub>1</sub>	2,5	2,5	2,5
18	L <sub>1</sub> L <sub>4</sub>	2,5	2,5	2,5
19	L <sub>11</sub> L <sub>3</sub>	2,5	2,5	2,5
20	M <sub>1</sub> M <sub>4</sub>	2,5	2,5	2,5
21	M <sub>1</sub> M	2,5	2,5	2,5
22	R <sub>8</sub> R <sub>41</sub>	1	1	1
23	R <sub>8</sub> R <sub>7</sub>	1	1	1
24	R <sub>1</sub> R <sub>9</sub>	1	1	1
25	R <sub>1</sub> R <sub>10</sub>	1	1	1
26	L <sub>2</sub> L <sub>6</sub>	0,5	0,5	0,5
27	L <sub>2</sub> L <sub>5</sub>	0,5	0,5	0,5



22-rasm. O'mizga o'tkazma ikki chokli yeng konstruksiya chizmasi.

### 2.9.1. YENGI REGLAN BICHIMLI KIYIMLARNI KONSTRUKSIYALASH

Reglan bichimli yenglar XIX asr oxirida erkaklar kiyimida paydo bo'lib, tez vaqtida taraqqiy topdi. Bunday bichimli yenglar ingliz generali Lord Reglan nomi bilan yuritiladi.

O'mizga o'tkazma yeng va reglan yenglar konstruksiyada jiddiy farq yo'q, lekin bu bichimda yoka o'miz chiziqlaridan boshlanadigan yeng, o'miz chizig'i va kiyimning yelka chiziqlari bilan yaxlit bichiladi. Ular endi o'ziga xos tusga ega bo'ladi.

Reglan bichimining quyidagi variantlari mavjud:

- klassik usulidagi reglan. O'miz chizig'i old va orqa bo'laklar yoka o'mizining yuqori nuqtalaridan 1,5—3,5 sm pastroqdan boshlanib, qo'lтиq osti chuqurliklar tomoniga ravon egri chiziq ko'rinishida shakllanadi;

- nolga teng reglan. Old va orqa bo'laklarning yoka o'mizi yuqori nuqtalaridan boshlanadi;

- reglan-pogon. O'miz chizig'i yelka chizig'idan 4—8 sm masofada parallel o'tib, qo'llarning tanaga birikish joyida qo'lтиq osti chuqurlik burchagi tomoniga yo'nalgan ravon ovalsimon egri chiziqqa o'tadi.

*8-jadval*

**Erkaklar tipik gavdasining o'lchamlari (170—100—82)**

T/r	Gavda o'lchamining nomi	Shartli belgisi	Qiyimati, sm
1	Bo'yinning yarim aylanasi	S <sub>bo'vin</sub>	20,5
2	Ko'krakning 1-yarim aylanasi	S <sub>kI</sub>	51,2
3	Ko'krakning 2-yarim aylanasi	S <sub>kII</sub>	52
4	Ko'krakning 3-yarim aylanasi	S <sub>kIII</sub>	50
5	Belning yarim aylanasi	S <sub>bel</sub>	41
6	Bo'ksaning yarim aylanasi	S <sub>bo'k</sub>	50,5
7	Orqa kengligi	S <sub>hor</sub>	20,5
8	Ko'krak kengligi	S <sub>hol</sub>	19
9	Yelkaning aylanasi	O <sub>vel</sub>	32

T/r	Gavda o'lchamining nomi	Shartli belgisi	Qiyimati, sm
10	Ko'krak bezi nuqtasi balandligi	V <sub>k.b.</sub>	128,2
11	Bel nuqtasi balandligi	V <sub>bel</sub>	110,6
12	Yelka kengligi	Sh <sub>yel</sub>	15,6
13	Ko'krak nuqtasi balandligi	V <sub>k</sub>	34,4
14	Old tomondan bel chizig'i balandligi	D <sub>bel.old</sub>	55,8
15	Orqa tomondan bel chizig'i balandligi	D <sub>orqa.bel</sub>	45,7
16	Qiya yelka nuqtasi balandligi orqa tomondan	V <sub>yel.q.</sub>	49,5
17	Qiya yelka nuqtasi balandligi old tomondan	V <sub>yel.q.old</sub>	45,3
18	Orqa tomondan bel chizig'i balandligi—I	D <sub>or.bel I</sub>	50,8
19	Old tomondan bel chizig'i balandligi—I	D <sub>old.bel I</sub>	44,9
20	Ko'krak markazi	S <sub>k</sub>	11,3
21	Qo'lning vertikal diametri	d <sub>co'l.v.</sub>	12,8
22	Gavda holati	P <sub>gav.</sub>	8,4
23	Belning birinchi chuqurligi	G <sub>bel I</sub>	4,7
24	Belning ikkinchi chuqurligi	G <sub>bel II</sub>	5,6
25	Ko'krakning old-orqa diametri	d <sub>old.orq</sub>	24,7
26	Belning old-orqa diametri	d <sub>old.or.bel</sub>	21,7
27	Bo'ksaning old-orqa diametri	d <sub>old.or.bo'l</sub>	23,4
28	Kiyim uzunligi	d <sub>buvum</sub>	131

9-jadval

**Kiyim erkinligi uchun beriladigan qo'shimcha haqlar  
(erkaklar paltosi, junli mato)**


T/r	Gavda o'lchamining nomi	Shartli belgisi	Qiyimati, sm
1	Orqa kengligiga	P <sub>or.a</sub>	1,5—1,7
2	Ko'krak kengligiga	P <sub>old.a</sub>	1,2—1,5
3	Bel chizig'i bo'yicha	P <sub>bel.</sub>	8—10
4	Bo'ksa chizig'i bo'yicha	P <sub>bo'k.</sub>	4—5
5	Yelka aylanasiga	P <sub>yel.ayl.</sub>	9,0—10,0
6	Yeng o'mizi erkinligi uchun	P <sub>o'm.k</sub>	3—4

T/r	Gavda o'lchamining nomi	Shartli belgisi	Qiymatasi, sm
7	Orqa yoqa o'mizi kengligiga	P <sub>yoqa o'm.</sub>	1-1,5
8	Orqa yoqa o'mizi balandligiga	P <sub>yoqa o'm. b.</sub>	0,2
9	Yeng boshining chinlar normasi	N	0,08-0,1
10	Yeng boshining balandligiga	P <sub>yeng bosh b.</sub>	0,9
11	Namlab-isitib ishlov berishga	P <sub>doo</sub>	0,7
12	Orqa tomondan bel chizig'i uzunligiga	P <sub>or.bel.uz.</sub>	1
13	Ko'krak markaziga	P <sub>k.m.</sub>	1,5
14	Ishlov berishga	P <sub>i.b.</sub>	0,3
15	Yelka yostiqchasi balandligiga	P <sub>yost.</sub>	1

## 10-jadval

T/r	Konstruktiv kesma	Hisoblash formulasi	Hisob	Natija, sm
1	2	3	4	5
1	AT	D <sub>or.bel.</sub> + P <sub>ora.bel.</sub>	45,5 + 1	46,5
2	AG	V <sub>o'm. or.</sub> + + P <sub>yeng o'm. k.</sub> + 1	21,5 + 5 + 1	27,5
3	AU	0,3 D <sub>or.bel.</sub>	0,3 × 45,5	13,6
4	TB	0,5 · D <sub>or.bel.</sub> - 3,5	0,5 × 45,5 - 3,5	19,3
5	AN	D <sub>buyum</sub> + P <sub>or.bel.uz.</sub>	130 + 1	131
6	A <sub>01</sub> A <sub>1</sub>	S <sub>b0'yin</sub> /3 + P <sub>b0'yin</sub>	20,5/3 + 1,5	8,2
7	AA <sub>0</sub>	0,5-0,7	0,5	0,5
8	A <sub>0</sub> A <sub>01</sub>	0,5	0,5	0,5
9	TT <sub>1</sub>	0,7	0,7	0,7
10	A <sub>1</sub> A <sub>2</sub>	A <sub>01</sub> A <sub>1</sub> /3 + P <sub>yoqa o'miz</sub>	8,2/3 + 1	3,7
11	G <sub>10</sub> G <sub>11</sub>	Sh <sub>or</sub> + P <sub>or.k.</sub>	20,4 + 2,5	23,
12	G <sub>11</sub> G <sub>5</sub> G <sub>4</sub> G <sub>5</sub>	10,4 + 7,5	18	18
13	G <sub>11</sub> G <sub>2</sub>	Sh <sub>yeng o'm</sub> : 2	18/2	9
14	G <sub>2</sub> G <sub>4</sub>	G <sub>11</sub> G <sub>2</sub>	9	9
15	G <sub>4</sub> G <sub>3</sub>	Sh <sub>k</sub> + P <sub>k.k.</sub>	19,2 + 2,5	21,7
16	G <sub>1</sub> P <sub>2</sub>	0,5 · D <sub>n</sub> + 9	18 + 9	27
17	A <sub>2</sub> P <sub>1</sub>	Sh <sub>vel</sub> + 2,5	15,5 + 2,5	18

1	2	3	4	5
18	A <sub>2</sub> A <sub>21</sub>	P <sub>1</sub> P <sub>11</sub>	1	1
19	G <sub>11</sub> P <sub>31</sub>	P <sub>o'm. k.</sub> + 1	5 + 1	6
20	A <sub>21</sub> A <sub>22</sub>	4	4	4
21	SS <sub>1</sub>	2	2	2
22	S <sub>2</sub> S <sub>3</sub>	0,1 · P <sub>31</sub> G <sub>2</sub> + 0,7	0,1 × 10,5 + 0,7	1,7
23	P <sub>11</sub> M <sub>0</sub>	65	65	65
24	P <sub>30</sub> O	P <sub>31</sub> G <sub>11</sub>	6	6
25	P <sub>11</sub> L	D <sub>yeng</sub> /2 + 5	65/2 + 5	37,5
26	LL <sub>11</sub>	OO <sub>11</sub>	26 - 1	25
27	M <sub>0</sub> M	2	2	2
28	MM <sub>1</sub>	Sh <sub>yeng uchi</sub>	20 + 1 + 2	23
29	S <sub>21</sub> S <sub>31</sub>	0,1 · P <sub>32</sub> O <sub>1</sub> + 0,7	0,1 × 11,5 + 0,7	1,8
30	G <sub>3</sub> G <sub>7</sub>	0,5 · G <sub>3</sub> G <sub>4</sub> + 1	0,5 × 21,7 + 1	11,8
31	G <sub>6</sub> G <sub>7</sub>	P <sub>yeng o'm.k.</sub>	4-5	5
32	G <sub>8</sub> G <sub>81</sub>	0,05 · G <sub>3</sub> G <sub>4</sub>	0,05 × 21,7	1,1
33	A <sub>3</sub> A <sub>4</sub>	A <sub>o1</sub> A <sub>11</sub>	8,7 + 1	9,7
34	T <sub>4</sub> A <sub>41</sub>	D <sub>1pl</sub> + 5	48,4	48,4
35	A <sub>41</sub> A <sub>5</sub>	0,4 · S <sub>bo'yin</sub> + 1	0,4 × 20,5 + 1	9,2
36	A <sub>5</sub> A <sub>60</sub>	2,5	2,5	2,5
37	G <sub>4</sub> P <sub>4</sub>	0,5 · D <sub>old</sub> + 6,5	0,5 × 36 + 6,5	24,5
38	A <sub>41</sub> P <sub>50</sub>	Sh <sub>yel</sub> + P <sub>sh. yel.</sub>	16 + 2	18
39	G <sub>4</sub> P <sub>61</sub>	P <sub>o'm.k.</sub> + 1	5 + 1	6
40	A <sub>41</sub> A <sub>42</sub>	4	4	4
41	S <sub>4</sub> S <sub>5</sub>	2	2	2
42	S <sub>6</sub> S <sub>7</sub>	0,1 P <sub>61</sub> G <sub>2</sub>	0,1 × 11 + 1	4,1
43	P <sub>50</sub> M <sub>40</sub>	65	65	65
44	P <sub>50</sub> O <sub>2</sub>	P <sub>11</sub> O	20	20
45	P <sub>50</sub> L <sub>20</sub>	P <sub>11</sub> L		
46	O <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	24	24	24
47	M <sub>3</sub> M <sub>4</sub>	Sh <sub>yeng uchi</sub>	20 - 1 + 2	21
48	S <sub>61</sub> SM <sub>71</sub>	S <sub>6</sub> S <sub>7</sub>	2,1	2,1



**23-rasm.** Reglan bichimli yengli erkaklar paltosining konstruksiya chizmasi.


## 2.10. TURLI XIL YOQALARINI KONSTRUKSIYALASH

Ayollar kiyimining yoqalari o'zining tashqi ko'rinishi bo'yicha uch guruhga bo'linadi:


- vertikal o'rnatilgan tik yoqalar;
- kiyimning yelka qismiga yopishib turadigan yapaloq yoqalar;
- tik va qaytariladigan qismlardan iborat qaytarma yoqalar;

Bu yoqalar har xil yaratilgan fantaziyalar natijasidir. Yoqa o'miziga, biriktirish usuliga qarab, ular yaxlit bichilgan va o'mizga o'tkazma yoqalarga bo'linadi. Yoqalar tepagacha taqiladigan va laskanli kiyimlar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Pidjak turidagi yoqalar va qaytarma yoqalar kiyimning yoqa o'mizi chizmasida, qolgan yoqalar esa alohida yaratilishi mumkin.

Yapaloq yoqa kiyimning old va orqa detallari yelka choklari  $A_1$ , nuqtada solishtirilgan yoqa o'mizi chizmasida chiziladi (24-rasm). Yelka choklarining yeng o'mizidagi uchlari 3—4 sm ga bir-biriga kiradi. Old bo'lakning markaziy chizig'ida joylashgan  $A_6$  nuqtasi 0,5—1 sm ga pasaytiriladi. Yoqa uchlari modelga qarab chiziladi.



24-rasm. Tekis yotadigan, yapaloq yoqa chizmasi.



**25-rasm. Tik yoqa chizmasi:**

*a* — to'rt burchak tik yoqa; *b* — konussimon tik yoqa.

Tik yoqa silindrik yoki konus shaklda bo'lishi mumkin. Silindrik shaklidagi tik yoqaning yoyilmasi to'g'ri burchakli to'rtburchak shaklida bo'lib, uning uzunligi old va orqa yoqa o'mizi yoylari uzunligiga teng, balandligi esa modelga qarab olinadi (25-rasm, *a*).

$$AV = D_{\text{orqa yoqa o'm}} + D_{\text{old yoqa o'm}}, \quad AV = 3-3,5 \text{ sm}.$$

bu yerda:  $D_{\text{orqa yoqa o'm}}$  — orqa yoqa o'mizining uzunligi;  
 $D_{\text{old yoqa o'm}}$  — old yoqa o'mizining uzunligi.


Tik yoqalarga konus shaklini berish uchun yoqaning o'rtaidan boshlab, yoqa pastki chokining uchi 1—3 sm ga ko'tariladi (25-rasm, *b*).

Shuni ta'kidlash kerakki, yoqaning pastki choki o'miz shaklidan qat'iy konstruktiv bog'liqlik yo'q. Bir shakldagi yoqa o'miziga turli shakldagi tik yoqalarni o'rnatish mumkin: pastki choki do'ppaygan tik yoqa, (konus-simon yoqa), to'g'ri chocli tik yoqalar (25-rasm).

### Kesma tik asosli qaytarma yoqalar

Yapaloq va tik yoqalarning ko'rinishini biriktirish. Yoqaning o'rta choki OV 4—8 sm ga ko'tariladi. Yoqaning uzunligi AV og'ma chiziq bo'yicha qo'yiladi:

$$AV = V_{\text{or. yoqa o'm.}} + D_{\text{old yoqa o'm.}}$$



26-rasm. Kesma tik qismli yoqa.


Yoqaning tik qismi  $VV_1 = AA_2 = 2,5-4$  sm. Yoqa qaytarma qismining kengligi  $VV_2 = 6-10$  sm. Yoqaning uchi va chetlari modelga qarab chiziladi.

### Tepagacha taqiladigan yoqa


Yoqaning balandligi bo'yicha konstruktiv kesmalarining qiymatlari quyidagicha: yoqa o'rtaligi chokining ko'tarilishi  $OV = 8-9$  sm; tik qismining balandligi  $VV_1 = 4-4,5$  sm; qaytarma qismining kengligi  $V_1V_2 = 10-14$  sm; tik qismining qayrilgan miqdori  $2-2,5$  sm ga teng.

Yoqanining uzunligi  $VA = D_{\text{or yoqa o'm}} + D_{\text{old yoqa o'm}}$

Yoqa uchlari va chetlari modelga qarab chiziladi.



27-rasm. Tepagacha taqiladigan va qaytarma yoqalar.



28-rasm. «Fantaziya» uslubidagi yoqalar.

## 2.11. TURLI MATERIALLARDAN KIYIMNI KONSTRUKSIYALASH USULLARI

### 2.11.1 Mo'ynali, teri va plynokali materiallardan kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari

Mo'yna sanoati mo'ynali kiyimlarning keng assortimentini ishlab chiqarmoqda: mo'ynali ustki kiyimlar, bosh kiyimlari, galanteriya va hokazo.

Mo'ynali kiyimlarning optimal konstruktiv yechimi, mo'ynaning fizikaviy-mexanik xossalariiga bog'liq.

Mo'yna xossalari xilma-xil bo'lib, ular hayvonlarning biologik xususiyatlariga bog'liqdir.

Mo'ynali kiyimlarni konstruksiyalashda mo'yna tukining balandligi, topografiyasi terining shakli va o'lchami, terining qalinligi va yumshoqligi e'tiborga olinishi kerak.

Ayollar mo'ynali paltolari silueti va bichimi juda xilma-xildir.

To'kislik uchun beriladigan qo'shimcha haqlar miqdorini aniqlashda moda tavsiyalari bilan bir qatorda mo'yna tukining balandligi ham hisobga olinadi: tuk balandligi qancha katta bo'lsa, to'kislik uchun qo'shimcha haq shuncha kichik bo'lishi kerak, chunki baland tukli mo'yna kiyim hajmini sezilarli yiriklashtiradi. Mo'yna tuki balandligini hisobga olgan holda, to'kislik uchun qo'shimcha haq miqdori ayollar kiyimi uchun 5—12 sm, bolalar kiyimi uchun esa 12—15 sm gacha bo'lishi mumkin.

Bir dona ayollar paltosiga, turiga qarab, 5 donadan 200 donagacha teri sarflanadi.

Terilar uzunlik, kenglik va yuza ko'rsatkichlari bilan o'lchanadilar.

Mo'ynali kiyimlarning yuqori issiqlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlariga qaramasdan, shimoliy rayonlarda issiqlik qatlamlari ham qo'llaniladi.

Issiqlik qatlaming qalinligi mo'yna turiga qarab quyidagicha bo'lishi mumkin:

- I guruh uchun — 0—1 mm;
- II guruh uchun — 1—3 mm;
- III guruh uchun — 3—5 mm;
- IV guruh uchun — 5—7 mm;
- V guruh uchun — 7—9 mm.

Ko'krak chizig'i bo'yicha qo'shimcha haqlar miqdori quyidagicha taqsimlanadi:

- 45—55% — yeng o'miziga;
- 25—35% — orqa detalga;
- 20% — old detalga.

Mo'ynali kiyimlarni ishlab chiqarishda namlab-isitib ishlov berish operatsiyalari ishlatalmaydi, shuning uchun

ularga hajmiy shakl faqat konstruktiv usullar bilan beriladi, kiyim detallari soni ham mumkin qadar kamaytiriladi.

Sun'iy mo'yna, teri va plyonkali materiallardan kiyim loyihalashda, birinchi navbatda, ularni namlab-isitib ishlov berish operatsiyalariga umuman dosh bermasligini hisobga olish lozim.

Bu materiallardan kiyimni loyihalashda moda yo'nalishi e'tiborga olinsa-da, lekin doim birinchi o'rinda ekspluatatsion talablar va badiiy ko'rkarlik turadi. Turli xil bezaklar qo'llanishiga va furnituraga katta ahamiyat beriladi.

Bu materiallardan tayyorlangan kiyimlarning hajmiy shakli faqatgina konstruktiv usullar bilan ta'minlanadi, choklar va vitachkalar ham shular jumlasidandir. Yenglar bichimi turli bo'lishi mumkin: reglan, o'tkazma, yaxlit bichilgan.

Qo'shimcha haq —  $P_k$  ning qiymati, teri va plyonkali materiallardan tayyorlangan kiyimlar uchun ularning kam cho'ziluvchanligi sababli oddiy gazlamadan tayyorlangan kiyimlarga qaraganda ancha katta:  $P_k = 12-14 \text{ sm}$  ni tashkil etadi.

Teri va plyonkali materiallardan kiyimni konstruksiyalashda ularning xossalariiga, ya'ni igna teshishiga sezgirligi, havo va bug'ni yomon o'tkazuvchanligini hisobga olish lozim. Bu materiallardan tayyorlangan kiyimning gigiyenik xossalarni yaxshilash uchun, koketkalar osti va qo'ltiq tagida ventilatsion blokchalar qo'yish ko'zda tutilishi lozim.

## **2.12. TRIKOTAJ KIYIMLARNI KONSTRUKSIYALASH XUSUSIYATLARI**

Ishlab chiqarish texnologiyasiga qarab trikotaj kiyimlar regular, yarim regular va bichilgan bo'lishi mumkin.

Regular kiyimlar (tanlangan o'lcham va shakliga qarab) to'quv mashinalarida toladan butun to'qilib chiqariladi.

Yarim regular kiyimlar xaltasimon trikotaj matolardan, yon chocklarisiz, yoqa va yeng o'mizlarini bichish yo'li bilan tayyorlanadi.

Trikotaj kiyimlarning 60 foizdan ko'prog'i bichilgan kiyimlardir. Trikotaj kiyimlarni modellashtirishda va konstruksiyalashda ularning zarur xususiyatlaridan biri bo'lmish suvda kirishishi, cho'ziluvchanligi darajasi e'tiborga olinishi shart.

Moskva Trikotaj ilmiy tekshirish instituti tomonidan ishlab chiqarilgan klassifikatsiya bo'yicha cho'ziluvchanlik darajasiga qarab trikotaj matolar 3 guruhga bo'lingan: I — kam, II — o'rta, III — katta cho'ziluvchanlik darajali matolar. Trikotaj kiyimlarni konstruksiyalashda bu ma'lumotlar asos tariqasida olinadi.

Ko'krak chizig'i bo'yicha qo'shimcha haq —  $P_k$  miqdorini tanlashda trikotaj matolarning deformatsion xossalari e'tiborga olinadi. Trikotaj kiyimlarning oddiy kiyimlardan farqi shundaki.  $P_k$  miqdori ularda gazlamadan tayyorlangan kiyimlarga qaraganda ancha kichik.

Sanoatda ko'krak chizig'i bo'yicha qo'shimcha haq —  $P_k$  qiymati jemperlar uchun 1—4 sm, jaketlar uchun 2—4 sm, kurtkalar uchun 4—6 sm, ichki kiyimlar uchun esa  $P_k = 0$ .

Trikotaj kiyimlarida qo'shimcha haq —  $P_k$  miqdorini quyidagicha taqsimlashni tavsiya etadi: orqa bo'lakka — 25—30%, yeng o'miziga — 50—55%, old bo'lakka — 20%.

## 2.13. BOLALAR KIYIMINI KONSTRUKSIYALASH XUSUSIYATLARI

Bolalar kiyimini loyihalash bolalarning jismoniy rivojlanishi, psixologiyasi, fiziologiyasi va pedagogika sohasida maxsus bilimlarni talab qiladi. Bolalar kiyimi

o'zining ko'rakligi, chiroyli bichimi, rangi, guli va strukturasi jihatidan to'g'ri tanlanganligi bilan kishi nazarini o'ziga tortishi, zavqlantirishi lozim. Avvalo u qulay, yengil, sodda va bolalar harakatiga erkinlik yaratish u berishi lozim. Bolalar kiyimining tarbiyaviy roli ham muhim ahamiyatga egadir. Chiroyli kiyim bola kayfiyatini ko'taradi, ozodalikka, saranjon-sarishtalikka o'rnatadi.

Bolalar kiyimini siluetini va geometrik shaklini tayyorlashda, ularning tana proporsiyalarini e'tiborga olish lozim.

Bolalar kiyimi: I — chaqaloqlar kiyimi; II — yasli yoshidagi bolalar kiyimi; III — mактабгача tarbiya yoshidagi bolalar kiyimi; IV — kichik maktab yoshidagi bolalar kiyimi va V — o'smirlar va katta maktab yoshidagi bolalar kiyimiga bo'linadi.

Chaqaloqlar va yasli yoshidagi bolalar kiyimi keng, kiyilishi oson bo'lishi kerak, tikish choklari mumkin qadar kam bo'lishi lozim. Bunday kiyimlarni tayyorlashda tabiiy tolali materiallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalar kiyimini loyiha-lashda tarbiyaviy maqsadni oldinga surish kerak: kattalar yordamisiz kiyimni kiyib-yechishni o'rgatish, ozodalikka da'vat etish. Bu yoshdag'i qizlar kiyimining silueti, asosan, to'g'ri, trapetsiya shaklidagi va tanaga qisman yopishib turadigan siluetli bo'ladi.

7 dan 14 yoshgacha bolalar organizmining intensiv rivojlanishi kuzatiladi, va shu davrdan boshlab o'g'il va qiz bolalarning tana tuzilishi farq qila boshlaydi.

Maktabga borish bilan birga bolalar uchun yangi mashg'ulotlar vujudga keladi, ular mustaqil bo'lishadi, mehnat va sportga qiziqish paydo bo'ladi. Bu yoshdag'i bolalar kiyimi o'zining shakli, materiaillari, bichimi jihatdan rang-barang bo'la boshlaydi. Ularga tanagan yopishib turadigan, «trapetsiya» va to'g'ri siluetlar tay-

siya etiladi. Kiyim yenglari bichimi esa reglan, yaxlit bichilgan va o'mizga o'tkazma bo'lishi mumkin.

O'smir va katta maktab yoshidagi bolalar gavdasi keskin rivojiana boshaydi. Qiz bolalar ko'kragi va bo'ksa qismlari aniq ajralib turadi. O'g'il bolalarning esa yelka qismi keskin rivojiana boshlaydi, ular ko'rkmashadi. Bu yoshdagagi bolalar kiyimida kattalar kiyimining moda xususiyatlari tez-tez uchraydi va ularning kiyimi kattalar kiyimiga tobora o'xshab boradi. Lekin sport kiyimlari bu yoshdagagi bolalarning eng sevimli kiyimi hisoblanadi.

Bolalar kiyimining baza asosi konstruksiyasini kattalar kiyimiga o'xshatib olib borilsa-da, albatta, ularning har bir guruh yoshiga mansub bo'lgan tana tuzilishi va proporsiyalarini nazarda tutish lozim bo'ladi.

Bolalar kiyimini konstruksiyalashda, odatda, to'kislik uchun beriladigan qo'shimcha haqlar miqdori, kattalar kiyimiga nisbatan kattaroq olinadi va ular kiyim silueti, material xossalari, model xususiyatlariga qarab tanlanganadi.

## **2.14. MAXSUS KIYIMLARNI KONSTRUKSIYALASH XUSUSIYATLARI**

Maxsus kiyim konstruksiyasini katta aholining o'lcham tipologiyasi asosida ishlab chiqariladi.

Maxsus kiyimni ishlab chiqarishdan oldin ishchilarning mehnat shart-sharoitlarini o'rganib, maxsus kiyimga qaratilgan texnik talablar dasturini tayyorlash lozim.

Mehnat faoliyatini o'rganish jarayonida ishlab chiqarishdagi zararli ta'sirlar tavsifi, bajariladigan ishning og'irlik darajasi, ishchilar harakatlari dinamikasi, meteorologik shart-sharoitlar, ishlash va dam olish rejimi kabi muhim ma'lumotlar izlaniladi.

Maxsus kiyimning baza asosi konstruksiyasini ishchilarning ish harakatlari rasmlariga, tanlangan material-

ning fizik-mexanik xossalariga va loyihalashtirayotgan kiyimga qo'yilgan talablarga asoslanib tayyorlash lozim.

TSMITI izlanishlari shuni ko'rsatdiki, mehnat jarayonida odam tanasining quyidagi o'lchamlari sezilarli o'zgaradi: orqaning belgacha bo'lган uzunligi, orqa kengligi, old tomondan belgacha bo'lган uzunlik, ko'krak kengligi, oyoq va qo'l uzunligi va hokazo.

O'lcham birliklarining dinamik o'sishi 3,6—9,4 sm ni tashkil etadi.

Dinamik o'sishlarning miqdoriga asoslanib, maxsus kiyimga to'kislik uchun beriladigan qo'shimcha haq miqdori aniqlanadi va uni kiyimning asosiy konstruktiv uchastkalariga taqsimlanish tavsifi aniqlanadi. Qo'shimcha haqning eng ko'p qismi orqa detal kengligiga va yeng o'mizi kengligiga beriladi.

Maxsus kiyimni loyihalashda kichik konstruktiv elementlarga muhim ahamiyat beriladi, chunki ularning to'g'ri tanlanishi kiyimning mudofaa, ekspluatatsion va gigiyenik xossalariga bog'liqdir.

Masalan, odam tanasini chang va mikroorganizmlardan himoya qiluvchi kichik konstruktiv elementlar mavjud turli xil belbog'lar, tekstil taqilmalari, elastik tasmalar va hokazolar. Kiyim osti mikroiqlimini, gigiyenasini ventilatsion bloklar ta'minlaydi.

Kiyimga ekspluatatsion xossalarini ta'minlovchi konstruktiv elementlarni tirsak va tizza uchastkalaridagi ikki qavatli taqilmalar, polimer qoplamlalar va hokazolar tashkil etadi.

### III. KIYIMNING YANGI MODELLARINI YARATISHDA LOYIHAVIY-KONSTRUKTORLIK ISHLARNI BAJARISH USULLARI

---

Agar kiyimni ishlab chiqarish — bu mavjud bo‘lgan texnik yozuv asosida uni tayyorlash bo‘lsa, shunday yozuvni vujudga keltirish jarayoniga *loyihalash* deyiladi. Loyihalash bo‘lg‘usi obyektning mo‘ljallanishi va uning xossalariiga qo‘yilgan talablari ifodalangan boshlang‘ich yozuv mavjud bo‘lgan holdagini boshlanadi. Boshlang‘ich yozuv texnik topshiriq (TT) shaklida rasmiylashtiladi.

Texnik topshiriq bir qator loyihaviy jarayonlar va muolajalarini amalga oshirish yo‘li bilan loyihaviy konstruktorlik hujjatlariga aylanadi va bu loyihaviy konstruktorlik hujjatlar, konstruktor va ishlab-chiqarish o‘rtasida vositachi rolini o‘ynaydi.

1971-yilda sobiq Sovet ittifoqida qabul qilingan Konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi (ESKD) loyihaviy ishlarni tartibga solish maqsadida qilingan bo‘lib, Davlat standartlarining majmuasidan iboratdir. Bu standartlar loyihaviy-konstruktorlik hujjatlarni tuzish, rasmiylashtirish va ular bilan muomalada bo‘lish to‘g‘risida yagona uzviy bog‘langan qoidalarni ifodelaydi.

**Badiiy konstruksiyalash** — bu sanoat mahsulotlarini loyihalashning zamonaviy ijodiy usulidir. Badiiy konstruksiyalash — jamoali ijodiy jarayon bo‘lib, unda muhandislik, agronomik va badiiy konstruksiyalash elementlari organik mujassamlashgan. Yuqori sifatli sanoat mahsulotlarining yangi namunalarini badiiy ishlab chiqarish bir qator mutaxassislarning hamkorligida amalga

oshiriladi: konstruktor-muhandis, rassom-dizayner, iqtisodchi, psixofiziolog, san'atshunos va hokazolar.

**Muhandislik konstruksiyalash** — mahsulning konstruksiyasini, ya'ni texnik tuzilishini aniqlaydi.

✓ Tikuvchilik korxonasida muhandis-konstruktorining asosiy vazifasi yangi kiyimda maksimum qulayliklarni, ya'ni ishlab chiqarish texnologiyasiga mosligi, tejamkorligi va ekspluatatsiyalash davrida chidamliligini ta'minlashdan iborat. ✓

### **3.1. SANOATDA KIYIMNI LOYIHALASHNING MAZMUNI**

Agar tanlangan yangi model uchun sanoatda mos keladigan baza asos konstruksiyasi topilmasa, unda kiyimni loyihalash quydagi 5 ta bosqichdan iborat bo'ladi.

#### **I. Texnik vazifa tayyorlash**

Birinchi bosqichning asosiy ishlari: kiyimni loyihalash shart-sharoitlarining tahlili, kiyim konstruksiyasiga qo'yiladigan talablar dasturini ishlab chiqarish, o'xshash modellar tahlili, ilmiy axborot va patent hujjatlarini o'rGANISH, loyihalashtirayotgan kiyimning sifat ko'r-satkichlarini aniqlashdan iboratdir.

#### **II. Texnik tavsiya**

Ikkinci bosqichning asosiy ishlari: tanlangan o'xshash modellarning tahlili, talablarni aniqlash, konstruksiya kiyimga qo'yiladigan variantlarini tayyorlash. maketlar tayyorlash, va optimal variantini tanlashdan iboratdir.

#### **III. Eskizli loyihalash**

Uchinchi bosqichning asosiy ishlari: loyihalashtirilayotgan kiyim variantiga kompozitsion va konstruktiv

ishlov berish, model nusxasini tayyorlash, uni dinamikada yoki mikroiqlimi kamerada sinash, kiyimning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashdan iboratdir.

#### **IV. Texnik loyihalash**

To'rtinchi bosqichda texnik hisoblashlar, kiyim detallari baza asosi konstruksiyasini aniqlash, model nusxasini tayyorlash va uni oxirgi sinovlardan o'tkazish, aniq sifat ko'rsatkichlarini tanlash kabi ishlar olib boriladi.

#### **V. Ishchi hujjatlar tayyorlash**

Oxirgi bosqichda loyihalashtirayotgan kiyim uchun texnik tavsif va andazalar komplekti tayyorlanadi.

### **3.2. KIYIMNI KONSTRUKTIV MODELLASHTIRISH USULLARI**

«Model» — lotinchi so'z bo'lib «namuna» ma'nosini bildiradi. Kiyimga nisbatan aytilganda, rassom-modearning fikri va niyati gavdalantirgan kiyimning birinchi namunasi tushuniladi.

«Modellashtirish» termini ostida, odam tashqi ko'rinishi va materiallar xossalari hisobga olgan holda yangi model yaratishning ijodiy protsessi nazarda тутилди.

Konstruktiv (texnik) modellashtirish deb, kiyim detallari andazasi yoki ularning chizmalarini munosib keladigan baza asosida eskizga yoki yangi model nusxasiga qarab ishlab chiqarilishi jarayoniga aytildi.

Modellarni o'rganish, tahlil qilish jarayonida, avvalo, ularning xususiyatlarini va qanday baza asosiga to'g'ri kelishi aniqlanadi. Modellar eskizdan yoki tayyor kiyim nusxasidan o'rganiladi.

Modelni kiyim nusxasidan o'rganishda kiyimning turi, silueti, bichilishi, o'lchami, bo'yisi, to'lalik guruhini aniqlashdan boshlanadi. Keyin qanday materialdan kiyim tayyorlangan, uning ko'krak, bel, son, etak chiziqlari kengligini, kengliklarning ko'krak chizigi bo'yicha oldi, orqa va yeng o'mizi uchastkalariga taqsimlanishi aniqlanadi va hokazolar.

Modelning surati yoki eskiziga qarab o'rganishda, ish uning mashtabini aniqlashdan boshlanadi. Undan kekyin bort, laskan chiziqlari, bel, son va etak chiziqlari joylanishi, tugma va izmalar, cho'ntaklar va hokazolar joylanilishi o'rganiladi. Kompozitsion qo'shimcha haqlar miqdori taxminan aniqlanadi. Bular hamma mashtabli lineyka yordamida aniqlanadi.

Modelni o'rganish bosqichi, yangi kiyim konstruksiyasini yaratish uchun kerak bo'lgan barcha ma'lumotlar aniqlanganidan keyingina tugaydi, deb hisoblanadi.

Munosib keladigan baza asosi konstruksiyasini tanlashda va uni yangi model konstruksiyasiga aylantirishda uch xil kriteriyadan foydalanish mumkin.

Birinchi toifadagi mezonlar kiyimning turi, materiali, bichimi, silueti, bo'yisi va to'laligini tavsiflaydi.

Ikkinci toifadagi mezonlar baza asosi va ishlab chiqarilayotgan modelning gabarit o'lchamlari mosligi nuqtayi nazaridan baholanadi.

Uchinchi toifadagi mezonlar konstruksiyaning asosiy detallari bo'laklanishi bilan bog'liqidir.

Model xususiyatlarini rasmdan chizmaga o'tkazish jarayonida baza asosga katta va kichik o'zgarishlar kiritish mumkin.

Baza asosini o'zgartirish darajasiga qarab konstruktiv modellashtirishning 4 varianti mavjud:

1) yangi model baza asosining siluet formasi o'zgarishisiz yaratiladi: faqatgina laskanlar, bortlar, yoqalar va hokazolar formasi o'zgaradi xalos;

2) yangi model yaratilishida baza asosining silueti, ya'ni odam qomatiga ko'krak, bel va son chiziqlari bo'yicha yopishib turish darajasi o'zgaradi;


3) o'mizga o'tkazib tikiladigan yeng, baza asosi konstruksiyasi boshqa bichimli yengga o'zgartiriladi (reglan, yaxlit bichilgan);

4) boshqa ko'rinishli yangi model yaratiladi.


**Texnik modellashtirish usullari quyidagi turlarga bo'linadi:**

Vitachkalarni turli yo'nalishlarga ko'chirish, burmalar va taxlamalar hosil qilish, detallarning vertikal va gorizontal bo'linishi, model xususiyatlarini yaratish: yoqa, laskan, bort, kichik detallar.

**1. Vitachkani oddiy ko'chirish.** Kiyimning old, orqa, yeng, yubka va shim detallarida olib borilishi mumkin. Vitachkani sodda ko'chirish quyidagicha olib boriladi: model eskiziga qarab vitachkaning yangi yo'nalishi belgilanadi (shu chiziq bo'yicha) andaza yangi yangi yo'nalish bo'yicha kesiladi, eski vitachka yopiladi, yangi vitachka esa ochiladi (29-rasm).



29-rasm. Ayollar kiyimining old bo'lak yuqori qismini modellashtirish usullari — vitachkani oddiy ko'chirish.




*30-rasm. Ayollar kiyimining old bo'lak yuqori qismini modellashtirish usullari — detallarni gorizontal va vertikal bo'laklash.*

**2. Detallarni bo'laklash usuli.** Detallarni bo'laklash kiyimga shakl berish jarayonida katta ahamiyatga egadir.

Yo'nalishiga qarab, detallar gorizontal va vertikal bo'laklanishlari mumkin. Gorizontal bo'laklash yo'li bilan turli koketkalar, ko'krak, bel va son chiziqlari bo'yicha kesmali detallar olish mumkin (30-rasm). Vertikal bo'laklash bilan esa turli shakldagi relyeflar hosil qilish mumkin.

**3. Taxlamalarni loyihalash.** Kichik taxlamalar va burmalar vitachkalardan kelib chiqadi. Bir tomonga qarovchi yoki bir-biroviga qarovchi taxlamalarni loyihalash uchun taxlamaning joylanishida detalning uzunligi bo'yicha kesilmalar kiritiladi va shu kesilmalar

taxlamalarning kengligiga teng bo'lgan miqdorga silji-tiladi. Son chizig'i bo'yicha bir tomonlama taxlamaning chuqurligi 6 sm ga teng (31-rasm).




**31-rasm.** Kiyim detallarini — parallel va konussimon kengaytirish usullari.



#### 4. Detallarni parallel va konussimon kengaytirish.

Parallel kengaytirish, asosan, kiyim detallarida burmalar va taxlamalar hosil qilish uchun qo'llanadi. Buning uchun detalga vertikal yo'nalishda konstruktiv chiziqlar o'tkaziladi va shu chiziqlar bo'yicha bir necha bo'laklarga bo'linadi. Vujudga kelgan tasmalar detalning gorizontal chiziqlari bo'yicha kerakli kenglikkacha suriladilar (33-rasm).

Model siluetiga qarab, konussimon kengaytirish, kiyimning yelka chizig'idan, ko'krak, bel yoki son chiziqlaridan boshlanishi mumkin. Konussimon kengaytirish usuli bilan o'tkazma yenglarning «fonarik» yoki «klyosh» turlariga ham erishish mumkin. Konussimon kengaytirish parallel kengaytirish usuli kabi amalga oshiriladi (32-rasm).



32-rasm. Detallarni konussimon kengaytirish.



33-rasm. Detallarni parallel kengaytirish.

**5. Model xususiyatlarini qurish.** Kiyim konstruksiyosining moda yo'nalishiga mos bo'lganiga laskanlar, bortlar, cho'ntaklar kabi model xususiyatlarini baza asosga o'tkazish katta ahamiyatga egadir.

Model xususiyatlarining konturlarini chizmaga o'tkazish davrida mashtabli o'tishdan foydalanadi.

**6. Murakkab burmalar, kesmalar va drapirovkalarni modellashtirish.** Murakkab burmalar, kesmalar va drapirovkalarni modellashtirish quyidagi ketma-ketlikda bajariladi (34, 35—36-rasmlar).



**34-rasm.** Ayollar kiyimida murakkab burmalar va kesmalar hosil qilish.



Qirqish chiziqi

Tanda ipi

Tanda ipi

Tanda ipi



Qirqish chiziqi

Burma

**35-rasm. Ayollar kiyimida murakkab burmalar va kesmalar hosil qilish.**

Qirqish chiziqlari



Qirqish chiziqlar



36-rasm. Ayollar kiyimida murakkab burmalar  
va kesmalar hosil qilish.

### **3.3. LOYIHALANAYOTGAN KIYIM MODELLARINING TEJAMKORLIGI**

Konstruksiya ratsionalligini aniqlovchi asosiy faktorlardan biri — bu uning tejamkorligidir. Kiyim konstruksiyasi tejamkorligi uning tannarxi bilan aniqlanadi.

Buyumlarning material sig‘imini kamaytirish, konstruktorlik yechimlarining darjasи va ishlab chiqarish umumtexnikaviy darajasini oshirish bilan bog‘liqdir.

Andazalarni gazlama ustiga qo‘yish hamda kiyimni bichish texnik talablarga muvofiq bajarilishi lozim. Asosiy ikkilamchi va yordamchi ish andazalari komplekti texnik kontrol bo‘limida tekshirilgan va qachon tekshirilganligi (oy, kun va yili) yozilib, imzo chekilgan hamda texnik nazorat bo‘limining shtampi bosilgan bo‘lishi kerak. Korxonadagi ish andazalari etalon-andazalar hamda o‘lchamlar tabeli bo‘yicha tekshiriladi.

Tayyor kiyimning sifati, bichish vaqtida andazalarning gazlama ustiga texnik talablarga muvofiq, to‘g‘ri qo‘yilishiga ko‘p jixatdan bog‘liq.

Tukli gazlamalar, shuningdek, har xil tusdagi gazlamardan kiyim bichish vaqtida asosiy gazlamadan tikiladigan detallarning barcha andazalari (adip va ostki yoqalar bundan mustasno) bir tomonga qaratilishi kerak. Kiyim, duxoba, baxmal, nimbaxmal, chiyduxoba kabi matolardan bichilayotganda, andazani gazlama tuki pastdan yuqoriga qarab turadigan qilib joylash kerak. Shunda tayyor kiyimning materiali yaltirab turmaydi. Gullari har tomonga qaratilgan gazlamalarda andazalarni gazlama gullari pastdan yuqoriga yoki, aksincha, yuqoridan pastga qarab turadigan qilib joylash tavsiya etiladi.

Andazaning joylanishi material tukining uzun-qisqaligi, mayin-dag‘alligiga bog‘liq. Uzun tukli materialda tuklar yuqoridan pastga, qisqa tukli materiallarda, pastdan yuqoriga yo‘nalgan bo‘ladi.

Tuklari ko'zga arang chalinadigan materialdan tikiladigan kiyimni bichganda, hamma detallarda material tuklarining bir yo'nalishda joylashgan bo'lishiga e'tibor berish kerak. Agar gazlama ustiga ikki kiyimning andazalarini bir yo'la joylashtirishga to'g'ri kelsa, u holda bir kiyimning jami detallarida gazlama tuklari bir tomonga, ikkinchi komplektda esa boshqa tomonga qaratilishi lozim.

Sidirg'a rang, yo'l-yo'l yoki katak (tuksiz) gazlamadan kiyim bichishda (agar kataklar, gullar simmetrik joylashgan bo'lsa) detallarning andazalari qarama-qarshi yo'nalishda joylashtiriladi. Gullari nosimetrik, shuningdek, ma'lum yo'nalishda joylashgan gazlamada bir kiyimning hamma detallari andazasi bir tomonga qaratib qo'yiladi.

Xol-xol (xollar yirik bo'lsa) yoki yo'l-yo'l gazlamadan kiyim bichib tikishda kiyim orqasi va oldining o'rta chizig'i gulning qoq o'rtasiga to'g'ri keltirilishi lozim.

Yo'l-yo'l va katak gazlama ustiga andazalarni joylayotgan vaqtida ayrim detallarning chetlari dagi, chunonchi: kiyimning oldidagi — bortlar cheti, kiyim orqasidagi — o'rta chiziq, podbortlarda — yoqa qaytarmalarining tashqi zihlari, cho'ntaklar, cho'ntak qopqoqlari, ko'krak cho'ntagi (listochki), yoqa, xlyastik, old va orqa koketkalar bir-biriga mos holda to'g'ri keltirilishiga alohida e'tibor berish kerak.

Kiyimning mazkur detallarini bichayotganda, gazlamaning gullarini bir-biriga to'g'ri keltirish uchun undagi takrorlanadigan gulning kattaligida yoki to'la kattaligida chok haqi undagi takrorlanadigan gulning kattaligida yoki to'la kattaligida chok haqi tashlab ketiladi. Kiyimning orqasi (chokli bo'lgan hollarda) va podbortlarni bichayotganda chok haqi tashlab ketilmaydi, balki bu detallar gazlamaning chetiga yaqinroq joylashtiriladi. Gazlamaning takrorlanadigan gullari yirik bo'lganda ham shunday talablar qo'yiladi.

Belbog'li va yelkasi yostiqchali kiyimlarda, chok haqi gazlama ko'ndalang joylashgan, yirik yo'llari yon choklar bir-biriga to'g'ri kelishini, yoqaning har ikkala uchi hamda yoqa qaytarmalari esa simmetrik joylashuvini ta'minlamog'i lozim.

Kiyim detallarini bichganda, hamma detallarning chetlari andazadan ozgina bo'lsa-da chetga chiqilishini nazarda tutish kerak. Lekin bu chetga chiqishlar quyidagi ko'rsatilgan darajadan oshmasligi lozim: avra materialdan bichilgan detallarning chetlari (yelka chizig'i, yeng o'mizi, yeng boshi va hokazo)da 0,1—0,15 sm; asosiy material va astarbop gazlamadan bichilgan detallar che-tida (bortlar zihi, old, yon chiziqlar, yengning tirsak to'g'-risi va oldingi zihlari, yoqa, qoplama cho'ntaklarning chetlari va hokazolarda) 0,15—2 sm; turli oraliq detallar, kiyimning old, orqa etaklari (avrasi va astari)da va hokazolarda 0,25—0,3 sm; kertiklar o'lchamlari va bir-biriga nisbatan joylashuvida 0,2 sm.

Andazadan eng ko'pi bilan 0,2 sm chetga chiqishga yo'l qo'yiladigan detallarni bichish vaqtida andazalar oralarida kamida 0,1—0,15 sm dan qoldirib joylashtirish lozim.

Tikuvchilik sanoatida va maishiy xizmat tizimida andazalarni joylashtirishning turli rasmlari qo'llaniladi; bu rasmlar ilmiy-tekshirish institutlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, har xil modeldag'i kiyim uchun qo'llanilishi mumkin: bu rasmlarda o'lchami va bo'yi har xil bo'lgan kiyimlarning yirik detallar andazalarini eni bir turdag'i gazlamalar ustiga joylashtirish tartibi ham ko'zda tutiladi.

Andazalarni gazlama ustiga joylashtirishning bir necha varinati mavjud. Lekin asosiy tamoyil quyidagidan iborat. Yirik detallar andazalarini joylashda ularning to'g'ri chiziqli (yoki shunga yaqin) chetlari joylashtirish ramkasining chetiga taqib qo'yiladi, egri chiziqli chetlari esa maydonchaning o'rtasiga to'g'ri keltiriladi.

Yirik andazalar orasiga maydaroqlari joylanadi, bunda yondash andazalarning chetlari bir-biriga tegib turishi lozim.

Yirik va o'rtacha kattalikdagi andazalarning chetlarini juftlashtirish kerak, ularning orasida hosil bo'lgan ochiq joylarga mayda andazalar sig'adigan bo'lsin.

Tavsiya etilayotgan rasmlarning ko'pchiligi, andazalarni simmetrik joylashtirish, ya'ni har ikkala qismda ham (agar uni shartli ravishda diagonal bo'yicha ikki qismga bo'ladigan bo'lsak) bir xil joylashtirish tamoyili bo'yicha tuzilgan.

O'Ichamlari, bo'yi bir xil bo'lgan va oraliq guruhgaga kiritiladigan kiyimlarning andazalarini joylashtirishda, eng qulay turli yaxshi rasmlardan foydalanish mumkin. Bir turdag'i, lekin har xil modeldag'i kiyimlarning andazalari shakli bir-biriga juda o'xshaydi. Ularni gazlama ustiga joylashtirishda yirik andazalarni joylash-tirish rasmidan foydalanish mumkin.

Materialning qiymati, tayyor kiyim tannarxining 80—90 foizini tashkil etadi. Shunga ko'ra kiyim bichishda materialni tejab-tergashning katta ahamiyati bor. Material ustiga andazalarni joylashtirishdagi tejamkorlik qir-qim chiqishiga qarab belgilanadi: gazlamaning eni ko'poz chiqishi turli omillarga bog'liq; gazlamaning eni va turi joylangan detallarning shakli, o'Ichami va bo'yı gazlama ustiga andazalarni joylashtirish tartibi shunday omillar jumlasiga kiradi. Qirqimlarning ko'poz chiqishiga andazalarning joylanish tartibi ko'proq ta'sir etadi. Palto detallarining andazalarini joylashtirishning asosiy rasmlari kiyim oldi va orqasining vaziyatiga, pidjak oldi-ning hamda shim oldi va orqasining vaziyatiga qarab aniqlangan.

Kiyim konstruksiyasining tejamkorligi, ekspluatatsiyalash jarayonida uni tashqi ko'rinishini saqlab turish uchun sarflangan iste'molchilar xarajatlari bilan aniq-

janadi. Masalan: kimyoviy tozalash, yuvish, ta'mirlash, dazmollash va hokazo.

Kiyimning ekspluatatsion tejamkorligi, asosan, materiallar sifatiga, shuningdek, qo'llaniladigan kimyoviy singdirmalar va maxsus ishlov berishlarga bog'liq. G'i-jimlanmaydigan singdirma, shaklni saqlaydigan singdirma, suv o'tkazmaydigan va suvni itaruvchi singdirmalar nafaqat kiyimni issiqlik saqlash xossalarni yaxshilaydi, balki kiyimning tashqi ko'rinishlarini saqlash uchun xarajatlarni kamaytiradi va uning chidamliligini oshiradi.

## **IV. LOYIHAVIY KONSTRUKTORLIK HUJJATLARI TAYYORLASH**

---

### **4.1. TASHKILOTLARNING BADIY-KONSTRUKTORLIK BYUROSINING UMUMIY STRUKTURASI**

Ishlab chiqarishni konstruktorlik tayyorlash vazifalariga, modellar kolleksiyasini tanlash, muhokama etish, yangi modellar ishlab chiqarish dasturini rejalashtirish, ularning konstruksiyasini loyihalash, mehnat sig'imi, rentabelligini va tannarxini aniqlash kiradi.

Texnologik tayyorlash vazifalariga, muhandislik ta'minoti — har bir alohida modelni yoki modellar seriyasini materiallar va furnituraning kerakli artikullari va ranglar gammasi uyg'unligi bilan komplektlash.

Korxonada konstruktorlik tayyorlash, tarkibi 4 guruh mutaxassislikdan iborat bo'lgan badiiy konstruktorlik byurosi tomonidan amalga oshiriladi, ya'ni *modellashtirish, konstruksiyalash, texnologik* va *normalash* guruhlari.

**Modellashtirish bo'limi** chiqarilayotgan maxsulotning badiiy-estetik darajasini aniqlaydi. Bu bo'limda rassom-modelerlar va konfeksionerlar ishlaydilar. Ularga bosh rassom rahbarlik qiladi. Bo'limning asosiy vazifasi sanoat kolleksiyasini eskizli loyihalash va zamonaviy modellashtirish, konstruksiyalash va taraqqiy texnologiya darajasiga javob beruvchi modellar namunasini yaratishdan iborat.

**Konstruktorlik bo'limini** bosh konstruktor boshqaradi. Bo'lim vazifalariga yangi modellarning sanoat kolleksiyalari konstruksiyasini texnik vazifaga binoan ishlab chiqarish va yangi eng modali modellar konstruksiyasini kichik seriyalar bilan chiqarish kabi ishlar kiradi. Bo'lim konstruktorlari barcha texnik

hujjatlarni tayyorlab komplektlashadi, yangi modellarni texnologik oqimga yuborish uchun tayyorlaydi.

**Texnologlar bo'limining vazifalari:** mehnat taraqqiyoti va energiya tejash texnologiyalarini ishlab chiqarish; modellarning assortiment seriyasi unifikatsiyalashgan texnologiyasini ishlab chiqarish; yangi strukturali materiallar xossalari o'r ganib, ishlab chiqarishga kerakli tavsiyalar berishdan iborat.

Normalash bo'limi asosiy oraliq bezak materiallari va furnitura sarfini aniqlaydi, materiallar sarfini tahlil qilib va ularni tejashga qaratilgan ishlarni amalga oshiradi.

#### **4.2. LOYIHAVIY-KONSTRUKTORLIK HUJJATLAR TARKIBI**

Yangi modelning konstruktorlik hujjatlari texnik yozuv va andazalar komplektidan iborat.

Texnik yozuv quyidagi hujjatlarni o'z ichiga oladi:  
1) modelning texnik ta'rifi (yozuvi), model eskizi;  
2) model badiiy bezalishining ta'rifi; 3) buyumga qo'yiladigan texnik talablar; 4) materiallar spetsifikasiyasi, konfektion xarita; 5) detallar va andazalar spetsifikatsiyasi; 6) texnologik ishlov berish haqida jadvallar; 7) texnik daraja xaritasi; 8) andazalar va tayyor kiyim namunasining o'lchamlari jadvali; 9) qabul etish, sortirovkalash, markirovkalash va hokazo; 10) normativ-texnik hujjatlar ro'yxati.●

Bu hujjatlarga kiyim modelining etalon-namunasi ham qo'shiladi.

#### **4.3. ANDAZALAR KONSTRUKSIYASINI TUZISH**

Kiyim detallari andaza bo'yicha bichiladi. Andaza tayyorlashdan oldin kiyim detallarining chizmasida vitachkalar, yon chiziqlar, yeng, shim va boshqa detallar

chiziqlarining barcha o'tmas burchaklari, ularning uchiga mumkin qadar yaqinroq dumaloqlanadi. So'ng kiyim orqa va old detallari, yeng usti va osti yarmi, shimning old yarmi va orqa yarmi juftlashtirilib, bir-biriga ulanadigan zihlarining o'zaro mos kelishi tekshiriladi; bunda konstruksiya chiziqlaridan arzimagan darajadagina chetga chiqishga yo'l qo'yiladi. Shu tarzda aniqlangan chizmalarda, chok uchun kiyim etagi, yeng uchi va shim pochasini bukishda qabul qilingan texnologik va texnik shartlarga muvofiq chok haqi belgilanadi.

Andazalar tayyorlash usuliga qarab, asosiy andaza, hosila andaza va yordamchi andaza degan turlarga ajratiladi, bajaradigan vazifasiga qarab esa, etalon-andaza (originallar), ish andazasi va yordamchi andaza kabi xillarga ajratiladi.

Etalon andazalar — andazalarni tekshirish uchun kontrol vosita sifatida xizmat qiladi. Ular eksperimental sexlarda saqlanadi va original chizmalar yoki «O'Ichovlar tabeli» bo'yicha kamida chorakda bir marta tekshirib ko'rildi.

Ish andazalaridan bevosita texnologik jarayonlarda (kiyim bichish, bichiqlarni tekshirish va hokazolar vaqtida) foydalaniladi. Bu andazalar oyiga kamida bir marta etalon andazalar bo'yicha tekshiriladi. Kesilgan joylardagi chetga chiqishlar normativ-texnik hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

Yordamchi andazalar kiyimning qayirib bukish chiziqlari, kesib tashlanadigan joylari, cho'ntaklar, izmalar, tugmalar va hokazolar o'rnini qo'shimcha ravishda belgilash uchun xizmat qiladi.

Andaza, qalinligi 0,9—1,62 mm keladigan karton qog'ozdan tayyorlanadi. Bu maqsadga ishlataladigan kartonning namlik darajasi havoning normal nisbiy namligi 60—65% bo'lganda 8% dan oshmalsigi lozim.

Ish andazalarining xizmat muddatini cho'zish uchun, ularning konturi bo'yicha tunuka tasma tutiladi yoki chetlariga maxsus eritma (yelim, suyuq shisha) surtiladi, shunda karton tezda yirtilmaydi va andaza gazlama bilan yaxshi tishlanadi, bu esa bichish aniqligini oshiradi.

Odatda ish andazalari 3—5 komplekt qilib tayyorlanadi. Asosiy andazalar kiyim konstruksiyasining chizmasi bo'yicha tayyorlanadi: bu andazalarda chok haqi, kiyim etaklari albatta hisobga olingan bo'ladi. Kiyimning orqaga, oldi beriladigan chok haqi, «Tikilgan kiyimlar. Qaviqlar, baxyalar va choklar» Davlat standartiga muvofiq belgilanadi. Detallarning (masalan, ustki yoqa va shu kabilarning) chetini qayirib bukish haqi, gazlamaning qalinligiga hamda uzel konstruksiyasiga bog'liq bo'lib, normativ-texnik hujjatlarda ko'zda tutiladi.

Erkaklar kastumi detallarining konstruksiyasida pidjak orqasining o'rta chizig'i, pidjak orqasi va oldining yon chiziqlari, yelka chiziqlari, old vitachkalar chiziqlari, yenglarning oldingi zihlari va tirsak to'g'risidan o'tadigan zihlari, shimplarning yon va og' chiziqlarini unifikatsiyalash ko'zda tutilgan. 37-rasmda erkaklar kastumi detallarining asosiy andazasini tayyorlash rasmi berilgan (kesiladigan joylarga haq tashlab ketilmagan).

Aholining shaxsiy buyurtmasiga muvofiq kiyim tikishda baza konstruksiyalar andazasi hamda chalafabrikat bichish uchun xizmat qiladigan andazalardan foydalaniadi. Baza konstruksiyalar andazasini tayyorlagan vaqtida chok haqi berilmaydi. Kiyimni bichganda tegishli joylarda chok haqi tashlab ketiladi, bu esa kiyim balansini yaxshilash maqsadida unga birmuncha o'zgartirish kiritishga va kompozitsion yechimlarga imkon tug'diradi (11-jadval).

**Gazlama tanda ipining yo'nalishi va kiyim detallarida undan chiqilishi**


Kiyim detallari	Kiyimning asosiy detallarida tanda ipning yo'nalishi	Tanda ipi yo'nalishidan chetga chiqish	
		Sidirg'a rang gazlama	Yo'l-yo'l va katakli gazlama
<b>Kiyimning orqasi</b>			
Yaxlit	Orqanizing o'rta chizig'i	2	0,5
O'rta chokli	Orqanizing o'rta chizig'i	2	0,5
<b>Kiyimning oldi</b>			
Yaxlit	Bar chizig'I	1	0
Tugmalanadigan	Bar chizig'ining yengyuqori izmadan etakkacha bo'lgan qismi	1	0
<b>O'tkazma yeng</b>			
Bir chokli	Detalning o'rta chizig'i	4-5	1
Ikki chokli	Yeng ustki qismi old zihining yuqori va pastki burchaklarini ulash chizig'i	6-7	2-3
<b>Reglan bichimli yeng</b>			
Bir chokli	Detalning o'rta chizig'i	4	1
Ikki chokli	Detalning o'rta chizig'i	2	0,5

Kiyim detallarining chetlarini to'g'ri va aniq ulash mumkin bo'lishi uchun, andazalarни tayyorlangan vaqt-da kertiklar qilinadi (37-rasm).

O'miz chizig'i va yeng boshidagi kertiklarni qanday hosil qilish kerakligi yenglarning chizmasini chizish to'g'risida so'z borganda yuqorida tushuntirish keltirilgan edi.


Shimning old va orqa yarmi andazalarida yon chiziqlar bilan og' chiziqlarida kertiklar tizza chizig'i to'g'risida joylashadi; shuningdek, gulfik va otkos ulab tikila boshlaydigan nuqtaga yoki 2 sm balandroqqa ham kertik qilinadi (37-rasm).

Reglan yengli kiyimda, kertiklarning o'rni orqa o'rta chizig'ida xuddi bel to'g'risida, kiyim orqa va oldi yon



*a*

2 (bostinsh eni)  
3 sm bo'lganda  
4 (bostinsh eni)  
4 sm bo'lganda



*b*

37-rasm. Erkaklar kastumi va shim detallarining asosiy andazasi:  
*a* — pidjakning orqasi, yon bo'lak, oldi va yengi;  
*b* — shimning oldi va orqa qismlari.

chiziqlarida esa ayni bel va son chiziqlari to'g'risida bo'ladi. Orqa yeng o'mizidagi birinchi kertik esa tirsakning perekat chizig'i uchida bo'ladi. Yenglarining o'mizga ulab tikiladigan chiziqlarining to'rt joyi kertiladi: yengning oldingi qismida — old yoqa o'mizi burchagidan 6—7 sm masofada, yengning orqa qismida — orqa yoqa o'mizi chizig'idan 7—8 sm masofada; yengning old qismida esa old perekat chizig'inинг uchi bilan bir sathda joylashadi. Yenglarning old va orqa qismlarida ustki zihlarining uch joyi kertiladi: biri yelkaning oxirgi nuqtasi bilan bir sathda, ikkinchisi yeng o'mizining chuqurlik chizig'i sathida, uchinchisi yeng uchi chizig'idan 7—8 sm narida joylashadi. Yengning old va orqa qismlarining ostki zihlaridagi birinchi kertik shu chiziq uchidan 6—7 sm masofada, ikkinchi kertik esa yeng uchidagi chiziqdan 7—8 sm masofada bo'ladi.


Asosiy andazalar ishlab chiqilgandan keyin detallarining justlashtiriladigan konturlari tekshirib ko'rildi (38-rasm).



38-rasm. Pidjak (a) va shim (b) detallarining andazalarini tayyorlash.

Hosila andazalar asosiy andazalar bo'yicha tayyorlanadi. Ikkilamchi andazalarga quyidagilar kiradi: asosiy materialdan tikiladigan detallarning (podbort, ustki yoqa, gulfik va otkos) andazalari; astarbop materialdan tikiladigan detallarning (kiyimning old va orqasi, yengning ustki va ostki qismlari, jiletka astari, shim old yarmining astari, gulfik, otkosok va hokazo) andazalari; oraliq materialdan tayyorlanadigan detallar (kiyimning ko'krak qismiga, yelkaga va yoqa oralig'iga qo'yiladigan dag'al matodan iborat bortovka)ning andazalari; astarlik materialdan tayyorlanadigan detallar (kiyimning ko'krak qismiga, yelkaga va yoqa oralig'iga qo'yiladigan dag'al matodan iborat bortovka)ning andazalari; astarlik materialdan tayyorlanadigan detallar (pidjak va jiletkaning old qismiga, orqa etakka, yeng o'miziga, yon etakka, yenglar uchiga, ustki va ostki yoqalarga podbortga qo'yiladigan takroriy oraliq material) andazalari. Adip, kiyim oldi va orqasining astari, yeng astari andazalarini tayyorlash tartibi 39-rasmda ko'rsatilgan.

Yordamchi andazalar kiyim detallarining asosiy va hosila andazalaridan foydalanib tayyorlanadi.



39-rasm. Andazalarni texnik ko'paytirish usullari:

a — nur usuli; b — guruhash usuli;

d — proporsional-hisoblash usuli.

Asosiy va hosila etalon-andazalarga hamda ish andazalariga texnik talablarga muvofiq quyidagi belgilar qo'yiladi: gazlamaning bo'ylama yo'nalishini ifodalovchi chiziq — tanda ipi yo'nalishi (T.I.); bo'ylama yo'nalishdan chetga chiqish chiziqlari; uloq tushadigan joylarda ularning minimal va maksimal kengligini ko'r-satuvchi chiziqlar (kiyimlarning tarmoq standartiga muvofiq); bir-biriga ulanadigan detallarning juftlash-tiriladigan joylaridagi nazorat kertiklar.

Yordamchi andazalarda cho'ntaklar, vitachkalar, burmalar, izmalar, tugmalar va hokazolar ko'rsatiladi.

Asosiy, hosila va yordamchi, etalon-andazalarning hamda ish andazalarining barcha komplektlarida kesiladigan joylardagi chiziqlar bo'yicha (andazaning chetidan 1 mm qochirib) 8—10 sm oralatib tamg'a bosiladi yoki chiziq chiziladi; tamg'a va chiziqlar andazaning eskirish darajasini tekshirib turish uchun kerak.

Ish andazalarida, kesish aniqligidan yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlarni ko'rsatib qo'yish maqsadga muvofiq. Kiyimning nihoyat darajada aniq bichilishi joylarida (yoqa o'mizi, yelka zihlari, yeng o'mizi, yeng boshi) yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlar 0,25 sm, astar va oraliq materialdan tayyorlanadigan detallarda esa 0,4 sm ni tashkil etadi.

#### 4.4. ANDAZALARINI TEXNIK KO'PAYTIRISH

Kiyimni ko'p miqdorda ishlab chiqarishda, «original» deb atalmish birinchi nusxasini faqatgina bir o'lcham — bo'y uchun tayyorlanadi. Qolgan o'lcham va bo'ylar uchun detallar andazasini o'rtacha o'lcham bo'y uchun detallari chiziqli o'lchamlarini kattalashtirish yoki kichiklashtirish yo'li bilan olinadi.

Texnik ko'paytirish deb, o'rtacha o'lcham bo'y assortimenti asosida turli o'lchamlar va bo'ylarning detallar andazasini loyihalash jarayoniga aytildi.

Texnik ko'paytirish, odam gavdasi o'lchamlarining o'zgaruvchanligini hisobga oluvchi o'lchamlararo va bo'ylararo o'sish qiymatlari yordamida amalga oshirilishi lozim.

Andazalarni texnik ko'paytirishda quyidagi talablarga rioya qilinishi kerak:

- kiyim ichki o'lchamlarining odam gavdasi o'lchamlariga to'g'ri kelishi;

- qomat tuzilishini e'tiborga olgan holda, kiyim yelka qismlari odam tanasining tayanch qismlari shakliga mos kelishi;

- kiyim alohida qismlarining odam gavdasiga dinamikada mos kelishi;

- turli o'lcham bo'yli kiyimlar etalon nusxasining tashqi ko'rinishga mos kelishi.

Ma'lumki, kiyim detallari o'lchamlarining o'zgarishi, odam gavdasining o'lcham birliklarining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun, andazalarni ko'paytirish asosida ikkilamchi o'lchamlar o'zgarishining birlamchi o'lcham birliklariga chambarchaq bog'liqlik qonuniyatida turishi shart.

Ikkilamchi o'lcham birliklarining regression bog'-lanishi natijasida ko'krak aylanasining o'zgarishi ( $bo'y = \text{const}$ ) enlama o'lcham birliklarining ham o'zgarishiga olib keladi. Va shuning teskarisi, bo'yning o'zgarishi (ko'krak aylanasi = const) bilan nafaqat bo'ylama, balki enlama o'lcham ham o'zgaradi.

Andazalarni texnik ko'paytrishdan maqsad, model loyihalanadigan kiyimning barcha o'lchamlari hamda bo'yлari uchun andazalar hosil qilishdir.

Andazalarni texnik ko'paytirish ishi bilan model tuzuvchi tashkilotlar, tikuvchilik korxonalarining laboratoriyalari hamda konstrukturlik byurolari shug'ulanganadi.

Andazalarni ko'paytirishning qo'lda bajariladigan bir necha usullari bor; shuningdek, ularni EHM lardan

foydalaniб avtomatlashtirilgan rejimda ko'paytirish ham mumkin.

Andazalarni ko'paytirishning **nur usuli** shundan iboratki, (39-rasm, *a*) markaz (fokus) sifatida qabul qilingan nuqtadan nur (chiziq)lar chiqariladi; bu nurlar fokusni konstruktiv nuqtalarga tutashtiradi; nurlar (chiziqlar)ning uzunligi, hisoblash jadvallaridan olingan orttirish qiymatlari uzunligigacha davom ettiriladi.

*12-jadval*

#### Konstruktiv nuqtalarni siljitishe belgilari tizimi

Belgilari	Gorizontal yo'nalishda		Vertikal yo'nalishda	
	O'lcham yoki bo'y kattalashtirilgan	O'lcham yoki bo'y kichraytirilganda	O'lcham yoki bo'y kattalashtirilgan	O'lcham yoki bo'y kichraytirilganda
+ (plus)	O'ngga	O'ngga	Yuqoriga	Pastga
- (minus)	Chapga	Chapga	Pastga	Yuqoriga

Bu usul sodda bo'lishi bilan birga, u kamchilikka ham ega; bu kamchilik fokus tanlashga taalluqlidir: konstruktiv nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa, ularni aniqlash shuncha qiyinlashadi. Bu usuldan, asosan, bosh kiyimlari hamda korsetli kiyimlar ayrim detallarining andazalarini ko'paytirishda foydalilanildi.

**Guruhash usulida** detallar (eng katta va eng kichik detal) andazalarining ikki komplektini gorizontal va vertikal baza chiziqlar bo'yicha juftlashdan iborat (39-rasm, *b*). Bir nom bilan yuritiladigan konstruktiv nuqtalar to'g'ri chiziqlar yordamida tutashtiriladi, kerakli o'lcham va bo'yli detallar andazalari hosil qilinadi.

**Proporsional-hisoblash usulu** — eng aniq usul bo'lib, har qanday shakldagi detallar andazalarini ko'paytirishda qo'llaniladi. Mazkur usulning asosiy kamchiliigi shuki, bunda mehnat va material ko'p sarf bo'ladi. Shunga

ko'ra undan nur usuli va proporsional hisoblash usuli uchun orttirib hisoblash jadvallarini tuzish vaqtidagina foydalaniadi.

Proporsional hisoblash usuli gavdaning o'lchov belgilari o'zgarishiga qarab, har bir konstruktiv nuqtani vertikal, gorizontal yo'naliislarda (bo'yiga va eniga) siljitishtga asoslangan (39-rasm, d).

Har bir nuqtaning siljitimishi 12-jadvalda plus (+) va minus (-) belgilari bilan ko'rsatilgan.

Andazalarni proporsional-hisoblash usulida ko'paytirish, kiyimlarni konstruksiyalash TSMITI usuliga muvofiq amalga oshiriladi.

Har bir konstruktiv guruhgaga tegishli orttirib hisoblash qiymat jadvallarini tuzish yo'li bilan aniqlangan, bu maqsadda esa ko'paytirish to'ri chizilgan.

Turli to'lalik guruhgiga kiradigan erkaklarning gavdasi bir-biridan farq qilganidek, har xil yosh guruhgiga mansub bolalarning gavdasi ham bir-biridan farq qiladi. Shunga ko'ra kiyim modeli, namunasi, konstruksiyasini yaratishdagi kabi, andazalarni ko'paytirishda ham muayyan to'lalik o'lcham guruhgiga mansub bo'lgan standart gavda asos qilib olinishi lozim.

Andazalarni texnik ko'paytirish jarayoni sermehnat ish bo'lib vaqt sarflashni hamda diqqatlikni talab qiladi. Bunda vaqtini tejash uchun andazani ko'paytirish ishini osonlashtiradigan turli moslamalar qo'llaniladi; ularning eng sodda turi orttirish nuqtalari oralig'i ignalar vositasida ko'rsatib qo'yilgan va uglomerli moslamalar yig'in-disidan iborat.

Andazalarni ko'paytirishda «grademaster», «multi grader» variatori kabi juda sodda asboblardan ham foydalaniadi.

Hozirgi vaqtida andazalar mashina usulida, ya'ni EHMLar, grafopostroitekkalar hamda qirquvchi asboblar yordamida ko'paytirilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Е. Б. Коблякова. и др. Основы конструирования одежды. — М., 1980.
2. Е. Б. Коблякова. Конструирование одежды с элементами САПР. — М., 1988.
3. Х.Х. Камилова, Н.К. Hamrayeva. Kiyimni konstruksiyalash asoslari. — Т.: «Moliya», 2003.
4. С. У. Po'latova. Kiyimlarni konstruksiyalash asoslari. — Т., 2001.
5. А. Г. Абдуллаев. Одежда узбеков. — Т., 1956.
6. Г. К. Hasanbayeva, Z. A. Chursina. Kastum tarixi. — Т.: «O'zbekiston», 2002.
7. М. Ф. Иваницкий. Анатомия человека. — М., 1965.
8. Т. Н. Дунаевская и др. Размерная типология населения с основами анатомии и морфологии человека. — М., 1980.
9. Антропометрическая стандартизация населения стран-членов СЭВ /Ю. С. Куршакова и др. — М., 1983.
10. Размерная типология населения стран-членов СЭВ / Ю. С. Куршакова и др. — М., 1974.
11. Справочник по конструирования одежды / В. И. Медведов и др. — М., 1982.
12. Г. В. Козлова. Художественное проектирование костюма. — М., 1982.
13. Единая методика конструирования одежды стран-членов СЭВ/Теоретические основы. — М., 1988, т. 1.
14. Е. Д. Афанасьева. Разработка единых методов конструирования одежды. — М., 1986.

15. Л. П. Ширинова. Конструирование женской одежды на типовые и не типовые фигуры. — М., 1980.
16. Лабораторный практикум по конструированию одежды / Е. Б. Коблякова и др. — М., 1976.
17. Конструирование легкого платья и белья. — М., 1968.
18. Скорняжное производство перевод с польского Ж. А. Частновой. — М., 1985.
19. И. А. Цепкина, В. А. Николаевская. Моделирование и художественное оформление меховых изделий. — М., 1973.
20. Г. И. Сурикова и др. Использование свойств полотна при конструировании трикотажных изделий. — М., 1981.
21. Методические указания по конструированию верхних трикотажных изделий для женщин. — М., 1970.
22. Т. Г. Костенко. Направление моделирования детской одежды для различных возрастных групп. Швейная промышленность. 1976 №6, с. 29—33.
23. П. П. Кокеткин и др. Промышленное проектирование специальной одежды. М., 1981.
24. В. Е. Романов. Системный подход к проектированию специальной одежды. М., 1981.
25. С. М. Мышина. Разработка принципов и методов подбора и анализа моделей-аналогов при проектировании одежды промышленного производства. Автореферат дисс., к.т.н. — Киев, 1985.
26. Г. В. Трухан. К проектированию ассортиментных серий новых моделей одежды. — Изв. Вузов ТЛП., 1980, №6, с. 78—81.

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>I. Kiyimni loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar .....</b>	<b>5</b>
1.1. Uslub va moda. Kiyim kompozitsiyasining asosiy tamoyillari .....	5
1.2. Kiyim va uning vazifalari haqida asosiy tushunchalar. Zamonaviy kiyim tasnifi .....	8
1.3. Gavda tuzilishi haqida qisqacha ma'lumotlar.....	10
1.3.1. Gavda o'lchamlari. O'lchash asboblari turlari va mo'ljallanishi .....	10
1.3.2. Erkaklar va bolalarning o'lcham tipologiyasi. Antropometriya.....	18
1.3.3. Odam gavdasining o'lchamlari tasnifi va kiyimning o'lcham standartlari .....	24
1.4. Kiyimning o'lchamlari, tuzilishi va konstruksiyasi tavsifi. 26	26
1.4.1. Kiyimning ichki o'lchamlari va tuzilishi tavsifi. Kiyim to'kisligi uchun beriladigan qo'shimcha haqlar .....	26
1.4.2. Kiyim tashqi va ichki o'lchamlarining bog'liqligi. Kiyim materiallari qalinligiga beriladigan qo'shimcha haqlar .....	28
1.4.3. Kompozitsion qo'shimcha haqlar.....	29
1.4.4. Kiyimning tashqi tuzilishi va konstruksiyasi .....	30
<b>II. Kiyimni konstruksiyalash usullarining qisqacha tavsifi .....</b>	<b>34</b>
2.1. Kiyimni konstruksiyalash usullarining umumiy tavsifi va tasnifi .....	34
2.2. Kiyimni konstruksiyalashda qo'yiladigan qo'shimcha haqlar va ularni hisoblash .....	37
2.3. Kiyimning konstruksiya asoslari .....	39
2.4. Kiyim detallarining boshlang'ich chizmalarini qurish usullari. .....	41
2.4.1. Umumiyl ma'lumotlar .....	41

<b>2.5. Kiyim konstruksiyalari va kiyimning bazali asoslarini konstruksiyalash usullarining tavsifi .....</b>	<b>45</b>
2.5.1. Kiyim konstruksiyasining bazali asoslari haqida tushuncha va ular tasnifi .....	45
2.5.2. TSMITI usuli bo'yicha kiyim konstruksiyasini qurish xususiyatlari .....	47
2.5.3. O'zaro Iqtisodiy hamjihatlikka a'zo davlatlarining kiyimni konstruksiyalashdagi yagona usulining tavsifi, tamoyillari va xususiyatlari .....	47
<b>2.6. Ayollar yubkasini konstruksiyalash.....</b>	<b>48</b>
<b>2.7. Ayollar kiyimi detallarining konstruksiya asosi chizmasini yaratish .....</b>	<b>53</b>
2.8. Erkaklar pidjagining baza asosi konstruksiyasini hisoblash va qurish .....	61
<b>2.9. Yenglarning konstruksiya asosi chizmalari .....</b>	<b>66</b>
2.9.1. Yengi reglan bichimli kiyimlarni konstruksiyalash .	72
<b>2.10. Turli xil yoqalarni konstruksiyalash .....</b>	<b>77</b>
<b>2.11. Turli materiallardan kiyimni konstruksiyalash usullari....</b>	<b>80</b>
2.11.1 Mo'ynali, teri va plyonkali materiallardan kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari .....	80
2.12. Trikotaj kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari .....	82
2.13. Bolalar kiyimini konstruksiyalash xususiyatlari.....	83
2.14. Maxsus kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari .....	85
 <b>III. Kiyimning yangi modellarini yaratishda loyihaviy-konstruktorlik ishlarni bajarish usullari .....</b>	<b>87</b>
3.1. Sanoatda kiyimni loyihalashning mazmuni .....	88
3.2. Kiyimni konstruktiv modellashtirish usullari .....	89
3.3. Loyihalanayotgan kiyim modellarining tejamkorligi .....	99
 <b>IV. Loyihaviy konstruktorlik hujjatlari tayyorlash .....</b>	<b>104</b>
4.1. Tashkilotlarning badiiy-konstruktorlik byurosining umumiy strukturasi .....	104
4.2. Loyihaviy-konstruktorlik hujjatlar tarkibi .....	105
4.3. Andazalar konstruksiyasini tuzish .....	105
4.4. Andazalarni texnik ko'paytirish.....	112
 <b>Foydalilanigan adabiyotlar .....</b>	<b>116</b>

**PO' LATOVA SABOXAT USMONOVNA  
KIYIMNI KONSTRUKSIYALASH**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

Muharrir	G. Fayziyeva
Rassom	J. Gurova
Tex. muharrir	T. Smirnova
Musahhish	S. Abdunabiyeva
Kompyuterda tayyorlovchi	K. Goldobina

**IB №**

Bosishga ruxsat etildi 25.09.06. Bichimi  $84 \times 108^{1/2}$ , Tayms garniturasi.  
Shartli b. t. 6,3. Nashr t. 6,5. Adadi 1500. 142-buyurtma.

•Arnaprint• MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
700182, Toshkent, H. Boyqaro ko'chasi 41.

67003